

**TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**



O'QUV USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**“MEHNAT IQTISODIYOTI VA SOTSILOGIYASI”
yo‘nalishi**

**“INSON TARAQQIYOTI VA XALQARO TAQQOSLASH
KO‘RSATKICHLARI”**

moduli bo'yicha

O'QUV USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT – 2022

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yil "7" dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: A.B.Hayitov – i.f.n., TDIU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti.
S.P.Qurbanov – i.f.f.d., TDIU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: G.K.Abduraxmonova – i.f.d., TDIU "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi professori;
N.T.Shoyusupova – i.f.n., TDIU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti.

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----------|
| I. ISHCHI DASTUR | 4 |
| II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI..... | 12 |
| III. MA'RUZA MATNLARI..... | 18 |
| IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR..... | 64 |
| V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR | 67 |
| VI. KEYSLAR BANKI | 68 |
| VII. GLOSSARIY | 82 |
| VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI | 83 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonlari, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta’lim vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o‘qitishning zamonaviy shakllarini qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” to‘g‘risdagi PF-60-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta

ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minalash maqsadida “...ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish” asosiy vaziflardan biri qilib belgilangan.¹

Modulning maqsadi va vazifalari

“Inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi zamonaviy muammolari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ijtimoiy rivojlantirish va insoniy taraqqiyot maqsadi va mohiyatining nazariy va amaliy asoslariga aniqlik kiritish, ularni tahlil etish va ko‘rsatkich darajalarini baholash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlari” modulining vazifalari:

- inson taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar, jamiyatning iqtisodiy munosabatlarini harakatga keltiruvchi mexanizmlar oliy ta’limda o‘qitish jarayoninini texnologiyalashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashtirish;
- tinglovchilarning inson taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolarni tahlil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarni hal etish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish strategiyalarni;
- zamonaviy inson taraqqiyoti bilan bog‘lik atamalarni qo‘llashni;
- inson taraqqiyotida oliy ta’lim sohasining o‘rni va roli bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish yo‘llarini **bilishi kerak**;

Tinglovchi:

- inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlarining hozirgi zamon muammolarga doir keyslar tuzish, ulardan amaliyotda qo‘llash **ko‘nikmalariga**

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-2909-сонли Қарори. Халқ сўзи газетаси 2017 йил 21 апрел.

ega bo‘lishi zarur;

Tinglovchi:

- ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlari, ijtimoiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish muammolarni aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish **malakalarini egallashi** lozim.

Tinglovchi:

- modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlaridagi muammolarni aniqlash;

- inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlaridagi muammolarni tahlil etish va baholash;

- optimal qarorlar qabul qilish va prognozlash kabi **kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Inson taraqqiyoti va xalqaro taqqoslash ko‘rsatkichlari” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Inson resurslarini boshqarish”, “Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti”, “Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | | | |
|--------------|---|--------------------------------------|----------------------------|--------------------|-------------------|--------------------|-----------------|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | | Mustaqil ta’lim |
| | | | jam'i | Nazariy mashg‘ulot | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot | |
| 1. | Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotida tutgan o‘rni | 6 | 6 | 2 | 4 | - | - |
| 2. | Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda uning inson taraqqiyoti maqsadidagi roli va o‘rni | 6 | 6 | 2 | 2 | 2 | - |
| 3. | Kambag‘allik va inson taraqqiyoti | 4 | 4 | 2 | 2 | - | - |
| 4. | Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash | 4 | 4 | 2 | 2 | - | - |
| Jami: | | 20 | 20 | 8 | 10 | 2 | - |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotida tutgan o‘rni

Demografik siyosatning maqsad va vazifalari. Demografik siyosatning ob’ekti va asosiy yo‘nalishlari. Demografik siyosatning tarkibi. Demografik siyosatning asosiy komponentlari. Demografik siyosat tarkibi. Demografik siyosatni o‘tkazish shart-sharoitlari. Demografik siyosat o‘tkazish uslublari: iqtisodiy, ma’muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik. Demografik siyosat jihatlari va darajalari. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat. Tug‘ilishni tartibga solishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirish usul va vositalari. O‘limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasidagi demografik siyosat yo‘nalishlari. O‘zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning asosiy xususiyatlari.

2-mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda uning inson taraqqiyoti maqsadidagi roli va o‘rni

Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolarning, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yoshi, jinsi, tili, irqi va millati, yashash joyi, faoliyat turi va xarakteridan qat’iy nazar ijtimoiy sohaga oid huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ijtimoiy zaif aholi toifalari manfaatlarini hisobga olish. Ijtimoiy zaif aholi toifalarini ijtimoiy

qo‘llab-quvvatlash. Ish haqi, pensiya va nafaqalarning eng kam miqdori o‘rnatish. Jamiyat va davlatning asosiy tayanchi sifatida oila institutini qo‘llab-quvvatlash, oila qurish, uni saqlab qolish va rivojlantirish uchun munosib sharoitlarni ta’minlash. Tegishli ijtimoiy xizmatlarni, shu jumladan tibbiy xizmatlarni bepul asosda yetkazish. Fuqarolarning aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha choralar va ularni amalga oshirish mexanizmlari. Aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha tadbirlarni, jumladan xayriya va homiylik yordami ko‘rsatishni amalga oshirayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni, tashkilotlarni, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash.

3-mavzu: Kambag‘allik va inson taraqqiyoti

Kambag‘allik tushunchasi. Kambag‘allik darajasini aniqlash usullari. Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar. Aholining kambag‘al qatlami mamlakatga xos bo‘lgan tezkor iqtisodiy o‘sish. Davlat bepul o‘rta ta’limni ta’minlashi. Zaif deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta’minlangan oilalarga imtiyozlar. Kambag‘allik holatida tushib qolish. Kambag‘al oila farzandi pul topish ilinjida ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi. “Kambag‘allik” va “kambag‘allik qopqoni” tushunchalari.

Kambag‘allik tushunchasiga yagona ta’rif. Birlamchi ehtiyojlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash). Kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirish. Ijtimoiy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash sohasidagi to‘siqlarning doimiy doirasi. Kambag‘allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko‘nikma va usullari.

4-mavzu: Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash

BMT Taraqqiyot dasturi. O‘zbekistonning ushbu indeks reytingidagi o‘rni. Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) nimani anglatadi va nima uchun bu ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi? Ushbu reytingda 40-o‘ringa ko‘tarilish uchun qanday natijalarga erishish va dunyoning qaysi davlatlari qatoridan o‘rin olish lozim? Oxirgi yillarda O‘zbekiston mazkur reytingda necha pog‘ona ko‘tarildi, boshqa Markaziy Osiyo davlatlarichi?

Iqtisodiyot va mehnat samaradorligining o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan, yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi jon boshiga o‘rtacha daromadi yuqori bo‘lgan mamlakatlar. Jamiyatning daromadlari. Turli mamlakatlardagi turmush sifati. mamlakat YaIMi notejis taqsimlanishi. YaIM darajasi. O‘sish sur’ati. Amartya Kumar Sen va pokistonlik mashhur iqtisodchi Mahbub ul-Haq. Inson taraqqiyoti konsepsiysi nafaqat nazariya..

Iqtisodiy rivojlanish sur’atlari. Turli jamiyatlar, millatlar va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatları va ularning inson taraqqiyotiga ta’siri. “Inson taraqqiyoti indeksi” (Human Development Index – HDI) qabul qilinishi. Muayyan mamlakatda inson taraqqiyoti darajasini o‘lchashda va davlatlararo taqqoslashda “*Tengsizlikni hisobga olgan holda inson taraqqiyoti indeksi*” (Inequality-adjusted Human Development Index – IHDI), “*Gender rivojlanishi indeksi*” (Gender Development Index – GDI) hamda “*Gender tengsizligi indeksi*” (Gender Inequality Index – GII) kabi ko‘rsatkichlar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotida tutgan o‘rni

Demografik siyosatning maqsad va vazifalari. Demografik siyosatning ob’ekti va asosiy yo‘nalishlari. Demografik siyosatning tarkibi. Demografik siyosatning asosiy komponentlari. Demografik siyosat tarkibi. Demografik siyosatni o‘tkazish shart-sharoitlari. Demografik siyosat o‘tkazish uslublari: iqtisodiy, ma’muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik. Demografik siyosat jihatlari va darajalari. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat. Tug‘ilishni tartibga solishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirish usul va vositalari. O‘limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasidagi demografik siyosat yo‘nalishlari. O‘zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning asosiy xususiyatlari.

Aholining takror barpo bo‘lish kategoriyasining mazmun-mohiyati. Aholi takror barpo bo‘lishining asosiy turlari. Aholi qisqargan takror barpo bo‘lishining omillari va oqibatlari. Aholining oddiy takror barpo bo‘lishi va unga xos xususiyatlar. Aholining kengaygan takror barpo bo‘lishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. Aholi takror barpo bo‘lishining asosiy ko‘rsatkichlari. Avlod uzunligi. Demografik o‘tish va uning bosqichlari. Demografik balans va uni tuzish. Aholi takror barpo bo‘lishining natijali ko‘rsatkichlari. Barqaror aholi modeli. Barqaror aholi va aholining takror barpo bo‘lish tartibi.

2-mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda uning inson taraqqiyoti maqsadidagi roli va o‘rni

Davlat ijtimoiy yordami tizimining shakllanishi. Ijtimoiy transfert turlari. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy transferlarning moliyaviy manbalarini modellashtirish. Ijtimoiy nafaqalar va ularni hisoblash usullari. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar. Pensiya ta’mnotinining tamoyillari va mexanizmlari. Pensiya ta’mnotinining turlari va ularni hisoblash usullari. Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlarini modellashtirish. Nodavlat pensiya jamg‘armalari. Imtiyozli pensiya tizimi. Jahon moliyaviy inqirozining pensiya tizimiga ta’siri. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnoti xususiyatlari. Pensiya tizimini isloh qilish yo‘llari. Ijtimoiy xizmat turlarining iqtisodiy tahlili. Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni modellashtirish. Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish turlari: tibbiy-ijtimoiy muassasalar, maxsus qurilgan uy-joylar, kunduzgi muloqotda bo‘lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlari. Ijtimoiy xodim va uning asosiy vazifalari. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari faoliyati. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyatini tashkil etish. Yangi ijtimoiy texnologiyalar: tez ijtimoiy xizmat; kunduzgi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari; harakat vositalari, xizmat ko‘rsatish prokat punktlari. Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish yo‘nalishlari. Ijtimoiy imtiyozlarning asosiy tamoyillari. Ijtimoiy imtiyozlarning shakllari va ko‘rinishlari. Ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarni aniqlash tartibi. Ijtimoiy imtiyozlarni kafolatlavchi me’yoriy-huquqiy baza va uni isloh etish. Davlat

tomonidan kafolatlangan ijtimoiy imtiyozlarning yo‘nalishlari. Ijtimoiy imtiyozlarni belgilash tartibi. Ijtimoiy imtiyozlarni moliyalashtirish manbalari va institutlari.

3-mavzu: Kambag‘allik va inson taraqqiyoti

Kambag‘allik tushunchasi. Kambag‘allik darajasini aniqlash usullari. Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar. Aholining kambag‘al qatlami mamlakatga xos bo‘lgan tezkor iqtisodiy o‘sish. Davlat bepul o‘rta ta’limni ta’minlashi. Zaif deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta’minlangan oilalarga imtiyozlar. Kambag‘allik holatida tushib qolish. Kambag‘al oila farzandi pul topish ilinjida ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi. “Kambag‘allik” va “kambag‘allik qopqoni” tushunchalari.

Kambag‘allik tushunchasiga yagona ta’rif. Birlamchi ehtiyojlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash). Kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirish. Ijtimoiy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash sohasidagi to’siqlarning doimiy doirasi. Kambag‘allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko‘nikma va usullari.

4-mavzu: Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash

BMT Taraqqiyot dasturi. O‘zbekistonning ushbu indeks reytingidagi o‘rni. Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) nimani anglatadi va nima uchun bu ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi? Ushbu reytingda 40-o‘ringa ko‘tarilish uchun qanday natijalarga erishish va dunyoning qaysi davlatlari qatoridan o‘rin olish lozim? Oxirgi yillarda O‘zbekiston mazkur reytingda necha pog‘ona ko‘tarildi, boshqa Markaziy Osiyo davlatlarichi?

Iqtisodiyot va mehnat samaradorligining o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan, yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi jon boshiga o‘rtacha daromadi yuqori bo‘lgan mamlakatlar. Jamiyatning daromadlari. Turli mamlakatlardagi turmush sifati. mamlakat YaIMi notejis taqsimlanishi. YaIM darajasi. O‘sish sur’ati. Amartya Kumar Sen va pokistonlik mashhur iqtisodchi Mahbub ul-Haq. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi nafaqat nazariya..

Iqtisodiy rivojlanish sur’atlari. Turli jamiyatlar, millatlar va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatları va ularning inson taraqqiyotiga ta’siri. “Inson taraqqiyoti indeksi” (Human Development Index – HDI) qabul qilinishi. Muayyan mamlakatda inson taraqqiyoti darajasini o‘lchashda va davlatlararo taqqoslashda “*Tengsizlikni hisobga olgan holda inson taraqqiyoti indeksi*” (Inequality-adjusted Human Development Index – IHDI), “*Gender rivojlanishi indeksi*” (Gender Development Index – GDI) hamda “*Gender tengsizligi indeksi*” (Gender Inequality Index – GII) kabi ko‘rsatkichlar.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash;


- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish;
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari **Muzokaralar**

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so‘zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, babsning mojaroga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo‘sghan hissasi to‘g‘risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»


Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.


Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarни shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.


- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta’minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘limgan) bitta muammoni hal etadi.
- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.
- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihatи hal etiladi.

Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko‘ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog‘liq bo‘lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog‘liq bo‘ladi. Uni qo‘llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o‘qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to‘silqlar

joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta'siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo'ladi.

So'ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni yengib o'tish vositalari strelka ko'rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o'ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo'lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo'laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--|--|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sislarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

Keys

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo‘yicha e’lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g‘olib bo‘ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo‘lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo‘sishga ko‘rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berdingiz. 6 oy o‘tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o‘rtasida e’tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo‘l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to‘g‘rilash uchun yordam so‘raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o‘zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to‘g‘rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo‘llarini topasiz.

III. MA’RUZA MATNLARI

1-mavzu. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotida tutgan o‘rni (2 soat)

1. Demografik siyosat tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati
2. Demografik siyosatning maqsadi va vazifalari
3. Demografik siyosat yo‘nalishlari va tamoyillari
4. Tug‘ilish sohasidagi demografik siyosat choralari
5. Oila sohasida demografik siyosat yo‘nalishlari
6. O‘limni kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlash sohasidagi demografik siyosat

1. Demografik siyosat tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlarida aholi dinamikasini va uni takror barpo bo‘lishini oz bo‘lsada maqsadga yo‘naltirilgan holda boshqarishga harakat qilingan. Nikoh-oilaviy munosabatlarini va reproduktiv holatni (nikoxdan oldin, nikohda, nikohsiz) me’yoriy boshqarish tarihiyроq hisoblanadi. Mu’lumki insonlar harakatiga ta’sir etuvchi ndividual xulq aktlari ustidan yo‘lga qo‘yilayotgan ijtimoiy nazratning asosiy maqsadi, aholi o‘sish o‘sish sur’atini yoki xech bo‘lmaganda, yuqori o‘lim sharoiti yuzaga kelgan paytda uni sonini saqlab qolish maqsadida tug‘ilish darajasini maksimallashtirishdir. Jamiyat miqyosida butun fanlaning rivojlanishi, xususan tibbiy bilimlarning rivojlanishi va aholi turmush darajasini sekin asta rivojlanishi aholi kasalanishi va o‘limi ustidan ijtimoiy nazoratni yuksalishiga imkon yaratdi. 19-asrda o‘lim darajasini yetarli darajada pasayishi bir tarafdan, nisbatan rivojlangan Yevropa mamlakatlarda tug‘ilishni tez sur’atda pasayishiga boshqa tarafdan esa – tug‘ilishni chegaralashni maqsadga muvofiqligi va aholi ko‘payib ketishini oldini olish haqidagi baxs va munozaralarga olib keldi. Bu nuqtai nazarni asoschilaridan biri ingliz rohibi, iqtisodichi olim T.R.Maltusdir. Agar biz quydagilarni hisobga olsakgina bu o‘rin yetarli darajada asosli bo‘lardi. Ya’ni, jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy tabaqalashuvi, aholining ko‘pgina qismini o‘ta qashshoqligi va yuqori o‘lim darajasi o‘ta muhim masalalarni yuzaga kelitiradi – tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida ijtimoiy barchaga barobar sharoit yaratish, sog‘liqni saqlashda sanitar, yashash va boshqa sharoitlarni yaxshilashga mos holda investitsiyalarni ko‘paytirishni talab etuvchi xayotni va sog‘liqni saqlash. 19 asrning ohiri – 20 asrning boshlarini keng ko‘lamda tibbiy yordam va sog‘liqni saqlash davlat dasutri birinchi davrini boshlanishi deb xisoblash mumkin. Xuddi shu davrga 19 asrning oxiridagi urush natijasidagi ko‘p insonlarni yo‘qotish natijasida, Fransiya hamda Germaniya va Belgiyadagi depopulyatsiya natijasida tug‘ilish muammolariga qiziqishni yangilanishini kiritishimiz mumkin. Aholi yo‘qotishlarini o‘rnini to‘ldirish hohishi tug‘ilishni rag‘batlantirishni yangi bosqichiga olib keldi. Biroq, endi tug‘ilishni oilada tartibga solish imkoniyatlarini davlat dasturi darajasida keng miqyosda rag‘batlantirishga olib keldi. 20 asrlarda demografik siyosat sohasidagi dolzarb yo‘nalishlarni o‘zaro mutanosibligi, ayrim mamlakatlarda o‘zgargan va sezilarli darajada farq qilgan. Bu yerda umumiy qilib 2 tamoyilni olishimiz mumkin: o‘zluksiz tarzda sog‘liqni saqlash va o‘limni

kamaytirish dasturiga investitsiyalarni ko‘paytirish; Oilaviy siyosat deb nomlanuvchi, iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish bolalik oilalarni ijtimoiy qo‘llash foydasiga qaratilgan, tug‘ilishni rag‘batlantirish an’anasidan asta sekin chekinish.

Hozirgi paytda demografik siyosat deganda hozirgi moment hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholi takror barpo bo‘lishi va dinamikasi sohasida ma’lum bir sifat va miqdorga yetishishni nazarda tutish yordamida konseptual ravishda, birlashgan vositalarni, fikrlar birligini davlat miqyosida umumiyligini qabul qilingan tizimi tushuniladi.

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, demografik siyosatni o‘tkazish, qator shartlarga rioya qilishni talab etadi. Bulardan uchtasini bir biridan ajratish mumkin emas. Birinchidan, aynan siyosatni maqsadini tasvirlovchi vazifasini, vaqtini belgilovchi konsepsiyanı mavjudligidir; ikkinchidan, qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatni barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo‘lgan resurslar va nihoyat, uchinchichi o‘tkazilayotgan siyosatni asosiy strategik fikrlarini qo‘llovchi, o‘zaro mutanosib fikrlar.

Turli mamlakatlarda, aloxida vaqt intervalidagi aniq demografik sharoit kontekstida Tug‘ilishni rag‘batlantirish bo‘yicha demografik siyosat choralarini tahlili, qandaydir konsepsiya yoki shaxsan demografik siyotsat konsepsiysi mavjud deyishga izn bermaydi. Xatto Fransiyaga nisbatan qo‘llaganimizda ham, demografik rivojlanishda navbatdagi qiyinchiliklarni yengishga ko‘maklashishi lozim bo‘lgan, taktik harakatlar xaqida gap ketishi mumkin. Shu o‘rinda, bu odatda qarama qarshi va tartibsiz bo‘lgan choralar doimo faqat bir maqsadgagina bo‘ysunadi – mamlakat aholisi sonini kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik, ya’ni, agar mamlakat demografik rivojlanish konsepsiysi bo‘lmasa ham, xech bo‘lmasa istalgan demografik trend haqida tasavvur mavjudligi haqida so‘z yuritishimiz mumkin.

Urushdan keyingi yillarda G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida demografik siyosatga ijtimoiy siyosatning bir qismi sifatida qarash boshlandi. 1970 yilning ohirlarida Demografik rivojlanishni tartibga solishga bunday yondoshishdagi fiklarning umumiysi bu ijtimoiy moslashishdir. Chunki u xozirgi xolatini, aholi iqtisodiy va boshqa umumiyligini fikrlarini hisobga oluvchi, demografik siyosat shaklining hozirgi sharoitida qulaydir.

Ushbu konsepsiya Skandinaviya, Germaniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarida ancha taniqlidir. Uning maqsadi shundan iboratki, jamiyat qisqartirilgan aholi takror barpo bo‘lishi sharoitida o‘qishi zarur. Ya’ni, kam samara beradigan tug‘ilishni rag‘batlantirishga investitsiyalarni kiritmasdan, balki investitsiyani iqtisodiyotni rivojlanishiga, sog‘liqni saqlashga, ekologiyaga, nixoyat - zarurat tug‘ilgan paytda mehnat resurlari tanqisligini qoplashi mumkin bo‘lgan migrantlarni joylashtirish.

Shu nuqtai nazarni biz Finlyandiya misoli ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni unda xukumat oilani rejorashtirishga ananaviy tarzda ancha liberal ravishda yondashadi, mamlakat kelajagidagi nisbatan demografik xavfini aytib o‘tirmasdan, uning istiqboli sifatida yashayotgan avlodlar tengligini va maksimal ijtimoiy tinchlikka erishish masalalarini ko‘radi. Natijada mamlakatda barcha oilaviy siyosat shu jumladan – aholini ijtimoiy himoyalangan qismini, nogironlar va boshqalarga turli xil yordam dasturlari amalga oshiriladi. SSSR da ham demografik siyosatni

o‘tkazishga konseptual tarzda yondoshishni shakllantirishga urinish yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bu savol tug‘ilishni keskin pasayishi sababli tahminan 1960 – yillarda olimlar tomonidan muxokama etila boshlandi. Ammo turli olimlarni demografiya predmetini fan sifatida tushunishi “Demografik siyotsat” tushunchasini talqin etishning o‘ziga hos xususiyatini kirgizdi va kuzatish sifatida uning maqsad va vazifalarini va mumkin bo‘lgan choralarini aks ettirdi.

Bu masala bo‘yicha munazaraning asosiy paradoksi shundaki, mamlakat demografik rivojlanishida asosiy muammo xudud va uning ko‘pgina qismida tug‘ilishning depopulyatsion darajasi ekanligini barcha mutaxassislar tushunishgan. Biroq bunda, xamma mutaxassislar demografik siyosat majmuaviy, ya’ni demografik jarayonlarni barschasini qamrab olishi kerak degan fikrni qo‘llab quvvatladilar. Nuqtai nazarlarning farqi faqatgina u yoki bu olimlar qaysi muammolarni demografik turkumga kiritishlaridan edi.

2. Demografik siyosatning maqsadi va vazifalari

Olimlarning bir qismi, demografik siyosatga bevosita ta’sir etishning ob’ekti tug‘ilish, o‘lim, nikoh qurish, ajralish, migratsiya, ijtimoiy va professional mobillikni joylashtirish deb fikrlaydilar. Ob’ektni mos holda, demografik siyosatning maqsad va vazifalari bu qadar keng tushunish natijasida “demografik jarayonlarda o‘zining obektini bevosita ko‘rish emas, balki jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchini ishlab chiqarishini aniqlovchi, inson mehnati va xayoti sharoitlari majmuasi sifatida ko‘rvuchi” aholi siyosatiga - yuqori darajadagi aholi siyosatini tarkibiy qismi sifatida qarash taklif etilgan.

Ma’lumki, “aholishunoslik siyosati” tushunchasiga kirish, ya’ni bu buradagi fikrlar natijasi, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning sezilarli darajadagi qismini qamrab olishi (agar butunlay qamrab olmasa, chunki qancha qismiligini aniqlash mushkul, yoki boshqachasiga, aholiga ta’sir etmasa) demografik jarayonlarni tartibga solishni utilitar maqsadiga bir qancha ma’naviylik berishi lozim. Biroq u demografik siyosatni o‘tkazishda, ya’ni davlat boshqaruvida amaliy foydalanish nuqtai nazaridan kammaxsul hisoblanadi.

Butunlay shunga o‘xshagan demografik va ijtimoiy siyosatga boshqa ikki anqlik misol bo‘la oladi. “Rivojlangan sotsialislik jamiyat uchun aholini o‘sishi – maqsadning o‘zi emas. Sotsializmda jamiyat ishlab chiqarishining asosiy maqsadi, inonlarni moddiy-ma’naviy ehtiyojarini yetarli darajada qondirish hisoblanadi. Shunga mos holda ijtimoiy siyosat shaklida ishtirok etuvchi demografik siyosat, doimo insonlarni sog‘lig‘ini saqlashga, ona va bolani har taraflama keng qamrovli parvarishlash qaratilgan. Birin ketin mehnatkashlarni farovonligini ta’minalashga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatini yuzaga kelishi ta’sirida demografik xulqda demografik bilishda almashinishlar ham shakllangan.”

Uning mohiyati shundaki jamiyat xayot faoliyatini boshqarishning istalgan sohasidagi har qanday ijtimoiy siyosat demografik jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay iloji yo‘q, lekin ikki tushunchani: ijtimoiy va demografik siyosatni aralashishiga asos bo‘la olmaydi. Bunga davlat tomonidan o‘tkaziladigan har xil turdagи ijtimoiy tadbirlar, demografik siyosat tadbiralarini esa faqat, qachonki ularni

o‘tkazishdan maqsad demografik jarayonlarga jamiyatni to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siriga bo‘gandagina kiradi.

Xuddi ana shundan demografik rivojlanish trendi butun jamiyat qiziqishlariga ham mos keladi. Shu bois, jahon tajribasida qabul qilingani kabi, demografik siyosatga ijtimoiy siyosatning qismi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Demografik siyosatning maqsadi, keljakda ijtimoiy siyosat maqsadlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, nisbatan yuqori ahamiyatga egadir. Shuningdek, ularni qo‘llash to‘g‘ridan to‘g‘ri jamiyatni maqsadga erishish bo‘yicha aniq va sezilarli harakatga (siyosiy, moddiy) qaratishga qodirligi va tayyorligiga bog‘liqdir. O‘z navbatida demografik xulq me’yorlari, tug‘ilish hamda o‘lim tamoyillari doimo ijtimoiy siyosatni maqsadi va istiqbollarini belgilovchi, aholi xayot faoliyatini ijtimoiy iqtisodiy sharoitlari ta’siri ostida bo‘ladi. Aytib o‘tilganlardan shu narsa kelib kelib chiqadiki: demografik siyosat tadbirlari uchun invetitsiyalar xajmi ko‘p jihatdan davlatning ijtimoiy siyosati doirasidagi maqsadlari hamda demografik maqsadlar ahamiyati darajasiga bog‘liqdir. Ikkinchi o‘ta muhim bo‘lgan demografik siyosat o‘tkazish uchun moddiy xarajatlar xajmi determinanti bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidir. tug‘ilishni rag‘batlantirish va o‘limni kamaytirishga sarflanuvchi mablag‘larni taqsimlash, uzoq muddatli va qisqa muddatli istiqbol uchun aniqlanadi.

Yaqin keljak nuqtai nazaridan tibiyot va sog‘lijni saqlashga sarflash ko‘proq foydaliroqdir. Chunki, ular maqsadiga ko‘ra universal xarakterga ega bo‘lib, aholi tomonidan ozmi ko‘pmi teng darajada ijobiy qabul qilinadi va yetarli darajada tez ijobiy samara berishi mumkin. Bunga urushdan oldingi yillarda SSSRda aholi xayot davomiyligini keskin o‘zgarishiga, patologik tuzilmasini o‘zgarishiga, epidemiyalarni kamayishiga olib kelgan sog‘lijni saqlashni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni misol bo‘la oladi.

Aksincha, aholini uzoq muddatga rivojlanishi manfaatlari va depopulyatsiyani bartaraf etish, shuningdek uning oqibatlari (asosan, qarishning jadallahishi), tug‘ilishni rag‘batlantirish, oilani, uni moddiy xolatini va jamiyatdagi mavqeini mustaxkamlash chora-tadbirlari katta qo‘yilmalarni talab etadi. Bu chora tadbirlar to‘g‘ridan to‘g‘ri, tezda o‘z samarasini bermaydi, chunki, ommaviy tarzda emas, balki u individual tarzda bilishni, ketma-ketlikda qabul qilishni talab etadi. Bu yo‘nalishdagi siyosat, reproduktiv xulq me’yorlari oilada 2-3 ta farzand bo‘lishi nazarda tutgani bois, demografik avlodlar uzunligi o‘lchovchi, uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Tug‘ilish trendiga nisbatan strategik xulqlarni tanlashdagi yondoshuvlar har xilligi ayrim mamlakatlarda mablag‘larni taqsimlash bo‘yicha turli tadbirlarda namoyon bo‘ladi. Mablag‘larni taqsimlashdagi farq ko‘proq ikki mamlakatda mavjud: yaqin vaqtgacha davlat pronatalizmi pozitsiyasida turgan Fransiyada va tug‘ilishni rag‘batlantirish bo‘yicha rasmiy davlat siyosati mavjud bo‘lmagan Germaniyada. Ikkala mamlakat oilani moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlashga YaIMni tahminan 12-13 foizini ajratadi, Fransiya esa to‘g‘ridan to‘g‘ri tug‘lishni rag‘batlantirishga, ya’ni oilani qo‘llashga malag‘ni 1/5 sarflaydi. Germaniya xuddi shu maqsadlarga investitsiyani 3% dan kamroq‘ini sarflaydi. Eng katta mablag‘ni bo‘lsa yuqorida aytib o‘tilgan ijtimoiy moslashish konsepsiyasida tuzilgan

maqsadlarga sarflanadi. Investitsilashtirish strategiyasining bunday differensiatsiyasida mamlakatlarning ijtimoiy va demografik siyosat maqsadlari nisbatan nomutanosib rasmiy pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

Reproduktiv me’yorlarni va matrimonial xulqning ustun kelishi bir tarafdan, bir necha o‘n yillar mobaynida singib ketgan o‘limning salbiy tendensiyasi, ya’ni sog‘liqni saqlashni orqada qolishi, boshqa tarafdan, yaqin kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijobiy natijalarga yetarli darajada qattiq chegara qo‘yadi. Bunga kuch sifatida demografik siyosatga maqchadli yondoshishni aniqlashda ob’ektiv tarzda belgilangan (demografik va ijtimoiy-iqtisodiy) chegarada barcha gipotetik kurilmani kiritish lozim, chunki uning elastikligi unchalik yuqori emas. Boshqa tarafdan, o‘zimiz istagan demografik kelajak haqida tasavvurlarni, qo‘ylgan demografik maqsadlarga sarflanishi mumkin bo‘lgan, real moddiy resurslar va investitsiyalar bilan doim solishtirish foydadan xoli bo‘lmaydi. Tabiiyki, ayrim sharoitda davlat ayrim masalalarga duch keladi: yo mavjud demografik resurlardan kelib chiqqan xolda, kuchni yashayotgan avlodlar turmush darajasini oshirishga qaratib, o‘zining ayrim ehtiyojlarini ko‘rib chiqish yoki mamlakatning demografik va mehnat salohiyatini ko‘tarish maqsadida demografik siyosatga ko‘proq investitsiyalarni jalb etish.

3. Demografik siyosat yo‘nalishlari va tamoyillari

Demografik siyosat tadbirlarini adekvat ravishda qabul qilinishi uchun ommani tayyorlash, birinchi navbatda tug‘ilish sohasida samaradorligini ta’minalashda hal qiluvchi omillardan biri deb hisoblash adolatlidir.

Aholi takror barpo bo‘lishining inqirozi, aholi o‘sish sur’atlarini yetarli darajada emasligini, individual tarzda xuddi butun aholi darajasida baholab bo‘lmaydi. Joriy demografik trend rivojlanishini va uni oqibatlarini ijtimoiy iqtisodiy maqsadlarini universal baholash – bu davlat institutlari vazifasidir. Har xil turdag'i tashviqot tadbirlari davlat va aholi orasida kommunikatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Demografik siyosat tadbirlarini ijobiy qabul qilish foydasiga jamiyat fikrini burishga yorqin misol bu 19-20 asrlardagi Fransiya tajribasidir. Xususan o’sha davrlardagi propoganda guruxlari “depopulyatsiya” termini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu fenomen olimlar orasida ko‘pgina baxs va munozaralar predmeti bo‘lib qoldi. 1896 yilda ahilini o‘sishini qo‘llash uchun Milliy uyushma tashkil etilgandi. 1921 yilda ko‘pgina katta oilalar uyushmalarini federatsiyalari yuzaga keldi. Un dan bir yil avval tug‘ilish muammolari bo‘yicha oliy sovet tashkil etildi. 1939 yilda esa xozirgacha oila haqidagi qonunchilik asosida bo‘lgan, oila kodeksini ishlab chiqgan aholi muammolari bo‘yicha Oliy qo‘mita tashkil etildi. Urushdan keyingi davrlarda Fransiyada demografik siyosatni rivojlanishi shu mamlakatnin taniqli siyosatchilardan biri – General de Gollya nomi bilan bog‘liqdir. 1945 yilda uning ishtirokida tashkil topgan aholi va oila muammolari bo‘yicha Oliy maslahat qo‘mitasi bevosita uning rahbarligi ostida faoliyat olib borib, ushbu tashkilotning mavqeini ko‘targani kabi, xuddi shuningdek taklif etilgan choralar va dasturlar mavqeini yuqori darajaga ko‘tardi.

Fransiya ketidan Belgiya va Daniya, 1930 yilda esa Shvesiya ushbu yo‘lga qadam qo‘ydi.

Fransiyada tug‘ilishning tartibga solishning yetarlicha qattiq siyosati 1970 yillar o‘rtalariga qadar istisno tariqasida boshidan pronatalizm atrofida tuzilgan va milliy mintelitet va ananalarning qismi bo‘lib qolgan, ijtimoiy sharoit tufayli belgilangan ko‘rinishda saqlab qoldi deyishga yetarlicha asos bor.

Bunga qarama-qarshi Germaniyani misol qilishmiz mumkin, u yerda millatni yo‘qotish bir vaqtning o‘zida demografik sohada ham ko‘pgina fikrlarni yo‘qotish timsoli bo‘ldi. Demografiya fan sifatida butunglay diskreditlangan, “demografik siyotsat” termini bo‘lsa taqiqlangan edi. Faqatgina 1970 yil o‘rtalariga kelib bu mavzu siyosiy partiyalar muxokamasi predmeti bo‘lib qoldi. 1980 yillarda depopulyatsiya bilan kurashish istagani va aholi o‘sishini xech bo‘limganda 0 daradasiga erishish uchun demografik siyosat choralarini ishlab chiqish zaruratini asoslovchi doklad tayyorlandi.

Biroq Parlamentdagi doklad muxokamasi quyidagi formulani qabul qilishga olib keldi: oilaviy siyosat - xa, demografik siyosat – yo‘q. Tug‘ilish va aholi o‘sishida siyosatning asosi mavjud bo‘lgan trendlarga moslashish va oilaviy siyosatni “ijobiy samarasini”ga umid qilish bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, ushbu holatda butun avlodning qirib ketishi mumkin bo‘lishiga qaramay, tug‘ilishni rag‘batlantirish choralarini qat’iy rad etish an’analarini mustaxkamlashib, shakllanib borishi kuzatildi.

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o‘zining ijtimoiy jarayonlarni boshqarish xuquqini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtida, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ishi maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining harajatlarini qoplash ham davlat zimmasida bo‘ladi. Bunday siyosat turli ijtimoiy deografik guruhlar, xududiy va etnik jamoalarning hayoty qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differensiallashgan bo‘lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu aspektiga qiziquvchilarining doirasi kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlari samaradorligi oshishi mumkin.

Shu bilan bir vaqtida, ko‘pgina mamlakatlarning siyosatchilari (siyosatshunoslar) tug‘ilish darajasini pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan demografik rivojlanishning salbiy tendensiylariga qaramay, demografik siyostani olib borishda to‘g‘ri chiziqli qarorlarni qabul qilish, ya’ni konkret tor doiradagi demografik maqsadlarni ilgari surishni hohlaydilar. Ko‘proq ijtimoiy rivojlanish global dasturlarining demografik yoki an’anaviy integratsiya siyosatiga ahamiyat beriladi. Demografik dasturlarga nisbatan bunday extiyotkorona munosabatalarni shakllantiruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- ong va xulqning individualashuvi davlatning bu yo‘nalidagi har qanday harakatlarini ommalashtirmaydi.
- demografik investitsiyalar tez va muxim pozitiv natijalarga erishish imkonini bermasiligi sababli davlat arboblarinng siyosiy imidjini oshirmaydi.
- demografik dasturlar harajatlarni talab etadi. Masalan, bir marta erishilgan tug‘ilish va o‘lim darajasini bir maromda ushlab turish uchun ketadigan harajatlar vaqt o‘tishi bilan rasmiy ravishda oshirilib borishi lozim. Buning hisobiga

demografik dasturlar umuman jamiyatga foyda keltirmaydigandek bo‘lib ko‘rinadi. Bundan tashqari aholi taklif qilingan va amalga oshirilayotgan chora tadbirlarga tezda moslashib keyitnchalik ularga e’tibor qilmay qo‘yadi.

4. Tug‘ilish sohasidagi demografik siyosat choralari

Bugungi kunga kelib dunyoda axolini o‘sib borish muammolarian tashvishga tushib, tug‘ilish darajasini tartibga solishga xarakat qilmayotgan deyarli birorta ham davlat qolmadi. Tug‘ilishni tartibga solishga urinayotgan barcha davlatlar ushbu sohada diametral qarama qarshi maqsadlari va qiziqishlari bilan farqlanuvchi 2 guruhga bo‘linadi 1 guruhga kiruvchi mamlakatlarda demografik o‘tish hali tugallanmagan va tug‘ilish darajasi nisbatan yuqori bo‘lib ularni asosan aholini o‘sish suratlarini pasaytirish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodi va resurslariga bo‘lgan demografik bosimni pasaytirish masalalari tashvishga soladi. Ushbu masalada eng aktiv pozitsiyani aholisi soni jixatidan eng katta xisoblangan Xitoy va Xindiston mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlar turli xil, jumladan regressiv, chora tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan axolini keskin o‘sishini to‘xtitishga urinadilar. 2 - guruhga esa industriyasi yuqori rivojlangan, biroq tug‘ilish eas xatto avlodlar almashinuvini ham ta’minlab berolmaydigan va ko‘pincha depopulatsiyaga olib keladigan darajada past bo‘lgan mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarning barchasi, jumladan Rossiya ham depopulatsiya muammosini kelib chiqish vaqtin, uning davomiligi, tarixiy (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) sabablariga ko‘ra biri biridan tubdan farq qiladi. Buning xisobiga bu mamlakatlarda qator muhim masalalar bo‘yicha yaqqol differensiatsiya namoyon bo‘ladi. Tug‘ilish darajasi va tipi o‘xhash bo‘lgan mamlakatlarda demografik siyosatni o‘tkazish yoki aksincha uni rad etish xaqida qaror qabul qmilinishini sabablari orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: tug‘ilishni xaqiqiy darajasi, uning tendensiyalari va axoli soni dinamikasini baxolash, ulkan kataklizmalar (1-navbatda urushalr) natijasida axoli orasidagi yoqotishlar, strategik (iqtisodiy, geopoletik , siyosiy - ma’naviy) rejadagi muammolarni yechish zaruriyati. Bu sabablarning birlashishi ba’zi mamlakatlarda ziddiyatlidir. Shu manoda tug‘ilish soxasida demografik siyosat olib borish zaruriyatini ochiqdan ochiq rad qiluvchi 2 ta mamlakat – AQSh va Buyuk Britaniya alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu mamlakatlardagi tug‘ilish darajavi, xatto aholining takror barpo etilishini ham ta’minlay olmasligiga qaramay, har ikkala mamlakat ham o‘zlaridagi tug‘ilish darajasini ichki va tashqi qarashlar va extiyojlarni qonuniylashtirish uchun yetarli deb xisoblashadi. Ikkala mamlakatlarda ham, farzandlarning tug‘ilishi, oila va insonning shaxsiy ishi, aholining o‘sishi esa davlatga na iqtisodiy, na ekologik va na ijtimoiy foyda keltirmaydi degan fikr ilgari suriladi. AQSh va Buyuk Britaniyadan tashqari Italiya, Irlandiya va bir necha boshqa mamlakatlar tug‘ilish darajasiga ta’sir etuvchi choralarini ishlab chiqish borasida o‘rtacha pozitsiyani egallab turishadi. Bu mamlakatlar farzandlar tug‘ilishini tartibga solishni ma’naviy va etik normalarga mos kelmaydi deb hisoblaydilar va bu masalada katta masshtabda xech qanday siyosat olib borilmaydi. BU mamlakatlarning xukumati hamda jamoatchilikning nikoh – oila munosabatlari, shuningdek abort va kontrasepsiya masalarida konservativ fikr bildirishadi.

Xududi, aholisining soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi, va boshqa belgilari jihatidan hislma xil bo‘lgan bu mamlakatlarni ikkita holat birlashtiradi.

Birinchidan bu mamlakatlardan birortasi ham 20 asr davomida (Rossiya, Fransiya, Germaniya kabi) ulkan insoniy yo‘qotishlarni boshdan kechirmagan. Ikkinchidan, bu mamlakatlarda demografik o‘sish zarurati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik (birinchi navbatda geopolitik va iqtisodiy) qarashlar mavjud emas.

Fransiya, Belgiya Germaniya mamlakatlarida esa 20 asrdan boshlab demografik siyosatga butunlay o‘zgacha qarashlar mavjud edi. Bu mamlakatlar 19 asrning ohiridan 20 asrning boshiga qadar sodir bo‘lgan ketma-ket urushlar oqibatida kattagina yo‘qotishlarni boshdan kechirdilar, iqtisodiy muvozanat buzildi va uni tiklash avj olib borayotgan depopulyatsiya sharoitida juda mushkul edi. Shu bilan birga bu mamlakatlar Yevropadagi geopolitik tenglikni saqlash zaruriyatiga suyangan holda o‘zining demografik potensialini qayta tiklashiga harakat qildilar. Aslida Fransiyada 1870 yildan 1910 yilgacha bo‘lgan butun davr mobaynida pronatalistik kayfiyat xuks suradi.

5. Oila sohasida demografik siyosat yo‘nalishlari

Turli mamlakatlarda farzandli oilalarga yordam choralarini tahlil qilish, ularni 4 guruhga ajratish imkonini beradi:

1. Qonuniy choralar
2. Farzandli oilallardagi moddiy qiyinchiliklarni kamaytirishga va talab qilinayotgan reproduktiv xulq evaziga shakllangan mukofotlarni taqdim etishga qaratilgan iqtisodiy choralar
3. Ayollar bandligi va onalikni uyg‘unligiga xalaqit beruvchi qarama-qarshiliklarni yengishga qaratilgan xuquqiy va iqtisodiy chora tadbirlar.
4. Olib borilayotgan siyosat uva uning maqsadlariga jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan ma’naviy ruhiy ta’sir choralar.

Qonuniy chora tadbirlar. Tug‘ilishni tartibga solishning xuquqiy sohasiga quyidagi masalalar kiradi:

- nikohga kirishning minimal yoshini belgilashdagi nikoh oilaviy xuquq, ajralish xuquqi, nikohda va nikoh bekor qilingandan so‘ng tug‘ilgan farzandlar uchun ota onalarning mas’uligi.
- abort kontrasepsiya va sterilizatsiyani amalga oshirish xuquqini qonuniy tartibga solish.

Qonuniy chora tadbirlarni mamlakatlar aro solishtirish juda qiyin, sababi ma’lum xuquqiy dalolatnama, nikoh oila kodeksi va o‘unga o‘xshash xujjatlarni qabul qilish yoki bekor qilinishi aksariyat mamlakatdagi tarixiy an’analar, diniy qarashlar, milliy mentalitet shuningdek, o‘tmishdagi demografik siyosat tajribalari natijalarini tahlillari asosida amalga oshiriladi.

Nikoh oila qonunqiligi va nikohdagi xulq tipini tartibga solish masalasida Rossiya yuqorida qayd etilgan mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Gap shundagi bu mamlakatlarning barchasida nikoxning yevropa tipi (ya’ni, kech nikohga kirish, nikohsizlik darajasining yuqoriligi, nikohdan avval norasmiy birgalikda yashashning keng tarqalganligi ko‘pchilik farzandlarning rasmiy nikohdan

tashqarida tug‘ilishi) ustun turadi. Bunda rasmiy nikohga kirish yoshi ayniqsa hozirgi sharoitda haqiqiy nikohga kirish yoshiga deyarli ta’sir qilmaydi.

Rossiyada birinchi nokohga kirishning o‘rtacha yoshi yevropa standartlariga ko‘ra past (ayollar va erkaklar uchun 20-22 yoshgacha) va voyaga yetgandan so‘nng darxol touzilgan nikohlar sonining ko‘pligi holatida nikohga kirish minimal yoshining o‘zgarishi, reproduktiv natijajalarning taqdiriga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ko‘pchilik chet mamlakatlarda nikoh oila munosabatlarini tartibga solish xech qachon cherkov ta’siri ostidan chetga chiqmagan. Rossiyada esa aksincha oktabr inqilobidan keyin darxol oilaviy xuquqlarning tartibga soluvchi dikretlar tuzila boshladi. Shundan so‘ng nikoh, oila xuquqi bir necha bor ham liberalizatsiya tomonga, ham ajralishni keskin chegaralash tomoniga o‘zgardi. Sovet xukumatining ushbu masaladagi olib borgan dastlabki qadamlari ma’naviy siyosiy doiradan tashqariga chiqmay demografik jarayonlarni tartibga solish maqsadidan yiroq edi. 1949-50 yillarga kelib esa, aksincha, qonunchilik, rasmiy nikohdan tashqaridagi munosabatlarni chegaralashga yo‘naltirilgan bo‘lib, aholining orasida erkaklar defitsiti kuzatilgan sharoitda ko‘p xotinlilikni oldini olish va oilani mustaxkamlashga xizmat qilishi lozim edi. 1960 yillarning oxirida qonunga kiritilgan o‘zgarishlar, xuquq normalari bilan shu davrda xosil bo‘lgan matrimonial xulq normalari o‘rtasidagi ziddiyatni hal etish imkonini berdi. Boshqacha qilib aytganda, ajralishni liberallashtirish, davlat tomonidan tuzilgan boshqaruv akti emas, balki faqatgina, yuzaga kelgan holatni tan olish edi.

Abortlar, kontrasepsiya, asterilizatsiya masalasidagi qonunchilik barcha mamlakatlarda o‘ziga hos xususiyatga ega bo‘lib, tarixiy jixatdan oila va shaxsning bu masalada mustaqil qaror qabul qilishini ta’qiqlashdan tortib to to‘la xajmi tolerantlikkacha rivojlangan. Hoizirgi kunda bor yo‘g‘i sanoqli mamlakatlargina (Irlandiya, Portugaliya, Malta) abortlarning legalizatsiyasiga qarshi keskin pozitsiyani egallab turibdi. O‘z navbatida qonunni kuchaytirishga qaratilgan har qanday urinishlar jamoatchilik fikrining qat’iy qarshiliga duchor bo‘lmoqda.

Abortlar haqidagi qonunqilik tarixi 1810 yildan, ya’ni Fransiyada Napaleon kodeksi qabul qilingan davrdan boshlanadi. Chamasi, abortlar amaliyoti bundan ancha ilgari qo‘llaniliyu kelgan biroq aynan shu davrga kelib davlat siyosatining predmeti tarzida shakllandı. Abort qotillika tenglashtirilib uning ishtirokchilari kuchli jazolangan bu xuquqiy normalar Fransiyada 1975 yilga qadar saqlanib kelgan va butun o‘tgan davr mobaynida nafaqat ulkan jarimalar balki qamoq jazosi ham tayinlangan. Ko‘pchilik mutaxassislar fikriga ko‘ra bunday chora tadbirlar qo‘yilgan maqsadga, ya’ni tug‘ilish darajasini oshirishga xizmat qilmasdan kriminal abortlar sonini oshishiga olib keladi. Abort masalasidagi qonunchilikning ommaviy liberalashtirish 1960 yillardan boshlanib, 12970 yillarning o‘rtalarida abortni butunlay ta’qiqlagan mamlakatlar deyarli qolmadı.

Iqtisodiy chora tadbirlar. Demografik siyosatning ushbu guruh choralar juda xilma xildir. Ularda farzdandli oilallarga nafaqa ajratishdan tashqari, farzandlari bor yoki farzanda ko‘rgan oilalarga (otalar, onalarga) turli hil imtiyozlar berishni nazarda tutadi. Shu o‘rinda oilalarga ajratilgan nafaqa uchun sarflanadigan mablag‘larga nisbatan, farzandli oilalardagi moddiy diskriminatsiyanei bartaraf etishga qaratilgan, ijtimoiy siyosat sohasiga tegishli imtiyozlarni berishga ko‘proq

mablag‘ sarflanadi. Shu usul bilan investitsiyalar ustidan maksimal davlat nazorati o‘rnataladi.

Tug‘ilishni iqtisodiy rag‘batlantirishning turli mamlakatlardagi tajribasi asosida eng keng tarqalgan yo‘nalishlar quyidagilardir:

1. Farzandli oilalarga nafaqa.
 - oyma oy beriladigan nafaqa yoki oiladagi farzandlarning soni, tug‘ulish ketmasetligi, oilaning umumiy daromadi va boshqalarga qarab kelgilananadigan nafaqa;
 - farzand tug‘ilishi munosabati bilan 1 marotaba beriladigan nafaqa;
 - homiladorlik va tug‘ruqda qisman yoki to‘liq haq to‘lanadigan ta’til;
 - homilador ayollar, tuqqan ayllar hamda yangi tug‘ilgan chaqaloqlar salomatligini tiklashga qaratilgan chora tadbirlar.
2. Ishlovchi onalar va otalar uchun soliq imtiyozlari, uy joyo uchun kredit va susbsidiyalar.

Oyma oy to‘lanadigan yoki oilaga belgilananadigan nafaqa. Ushbu nafaqa turi eng keng tarqalgan bo‘lib, turli mamlakatlarda, nafaqa belgilash sxemalari turlichadir. Masalan, Avstriya va Danyada nafaqa barcha farzandli oilalarga oilaning daromadidan qat’iy nao‘ar tayinlanadi Fransiya va Germaniyada nafaqaning miqdori oilaning daromadi va farzandlar soniga bog‘liq. Buyuk Britaniyada oiladagi farzandlar sonidan qat’iy nazar faqatgina kam daromadli oilalar nafaqa olish xuquqiga ega. Italiya va boshqa bir qancha mamlakatlarda oila daromadining yuqori chegarasi belgilangan bo‘lib shu miqdordan ortiq daromad oluvchi oillarga xech qanday nafaqa berilmaydi.

Oyma oy to‘lanadigan nafaqaning summar kattaligin , odatda oiladagi farzandlar sonining oshishi bilan ortib boradi, sababi ko‘pchilik mamlakatlarda siyosatning ushbu yo‘nalishi oilada farzandar tug‘ilishi, ularni tarbiyalash va ma’lumot berish bo‘yicha harajatlarni iaksimal darajada kompensatsiyalash davlatning burchi ekanligini nazarda tutadi.

Nafaqa olishning chegara yoshi turli mamlakatlarda 16-18 yoshgacha belgilangan.ko‘pgina mkamlakatlarda nafaqa yoshini kattalashishi bolaning ma’lumot olishi bilan bog‘liq (Germaniya, Niderlandiyada 27 yoshgacha). Eng katta oilaviy nafaqalar Belgiyada belgilangan (o‘rtacha oylik maoshning 70Foizigacha). Biroq bunda ko‘proq oiladagi farzandlar soni emas, oilaning moddiy ta’milanganlik darajasi hisobga olinadi. Oilaning nafaqalarini moliyalashtirish har doim ham budget mablag‘lari hisobiga amalga oshirilmaydi. Masalan Avstriyadan oilaviy nafaqalar markazlashtirilgan holda yagona kompensatsion fond hisobidan to‘lanadi. Fonddagi mablag‘larining manbai quyidagilar:

1. Tadbirkorlar to‘lovleri
2. Markaziy va maxalliy xukumkat organlari budgetidan ajratmalari.
3. Xududlardagi aholining soniga proporsional ravishdagi to‘lovlar.

Belgiyada nafaqalar milliy ijtimoiy himoya boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv fondlari tadbirkorlardan tushgan to‘lovlar asosida shakllanadi. Itlaiya Luksemburgda oilaviy nafaqalar ijtimoiy sug‘urta fonlari hisobiga moliyalashtiriladi.

Farzand tug‘ilishi munosabati bilan 1 marotaba beriladigan nafaqa. Nafaqaning bu turi oyma oy beriladigan nafaqalarga nisbatan kamroq tarqalgan. Bu bilan ko‘pchilik davlatlar o‘zlarining oiladagi reproduktiv xulqqa nisbatan asosli pozitsiyalarini namoyon qiladilar. Bu bilan ko‘pigna davlatlar ushbu choraning pronatalistik samarasizligini rad qilishlarini emas, balki oilaning demografik xulq munosabatlari pozitsiyasini ongли ravishdaligini ko‘rsatadi.

Bu pozitsiya oila va shaxsning reproduktiv kulon modelini erishish konsepsiyasiga asoslarib ayni vaqtida ota onalik (onalik, otalik) ni uz ichiga oladi. Ongли ravishda ota ona bulish deganda, er va xotin va farzand tuzimi xakida karor qabul qilishda bola dunega kelgan vaqitda uni minemal zaruriyatlarini qondirish uchun barcha tayyorgarlikni o‘z zimmalariga olishlklari loimligi nazarda tutiladi.

Shunday qilib, bo‘lg‘usi farzand xususida davlatning olib boradigan siyosati 2 qisimdan iborat bo‘ladi. 1 tomondan xomiladorlik va tug‘urukni sog‘lom kechishi uchun barcha sharoitlarni yaratса (xomiladorlar ni tekshirish, to‘g‘ruqga, tug‘uruqdan keyingi ta’til, xomiladorlarni ish o‘rinlarini saqlab qolish v.x.z), ikkinchi tomondan davlat qaysidir ma’noda tuzilgan farzandlarni boqish tabiyalash va ularga ma’lumot berishda ishtirok etadi, aslida farzandning tug‘ilishi va vaqtini uning ota onasi belgilaydi va uni ta’minalash asosan ularning vazifasidir. Umuman olganda, 1 marotabalik nafaqalar bilan ta’minalash prinsipi pronatalistik siyosatning boshqa chora tadbirdarga qaraganda ancha differensiallashgan bu choralar ko‘p darajada ijtimoiy manzil xarakteriga ega bo‘lib, oilaning daromadlari va ijtimoiy statusiga mustahkam bog‘liq. Bu holat depopulyatsion mamlakatlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari bilan to‘liq mos keladi. Bu yerda asosiy o‘rinni asl demografik qarashlar emas, ko‘proq ijtimoiy qarashlar: har biri kishini ijtimoiy himoyalash va minimal daromad bilan ta’minalash, ayollar erkinligi va kar’era bilan oila orasidagi tanlovi erkinligi egallaydi.

Asosiy e’tibor ijtimoiy adolatga, ijtimoiy diskriminatsiyani qisqartirishga, farzandlar soni turlicha bo‘lgan oilalarning turmush darajasini tenglashtirishga qaratiladi. Oilaviy va bir marotaba beriladigan nafaqalarning miqdori boy mamlakatlarda ancha yuqori bo‘lib, aksincha qashshoq mamlakat (Gresiya, Portugaliya, Irlandiya) mamlakatlarida tug‘ilishni pasaytirmaslik va yuqoridagi mamlakatlarning demografik dasturlarini rasman ovoza qilinishiga qaramay, tuzilish tendensiyalariga real tarzda ta’sir etish imkoniyati mavjud emas.

Homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha ta’til va uni to‘lash prinsiplari. Mamlakatlar bo‘yicha homiladorlik va tug‘ruq uchun ta’til berish asoslari va sxemalari anchagina differensiyalashgan asosiy farqlar davlat sektori va xususiy sektorda ishlovchi ayollar orasida kuzatiladi. Ularga beriladigan ta’til davomiyligi to‘loving o‘lchovlari va moliyalash mablag‘lari bir biridan farq qiladi. Odatta davlat sektorida ishlovchi ayollarga nisbatan uzoqroq davom etuvchi ta’til va katta o‘lchamdagи kompensatsiyalar beriladi.

Bunday hollarda ta’tilga haq to‘lash yokito‘liq davlat budgeti mablag‘lari hisobiga yoki kompensatsiyalashgan shaklda (ijtimoiy va tibbiy sug‘urta budgeti va fondlari) amalga oshiriladi. Xususiy sektorda ishlovchi ayollar esa mablag‘larni turli sug‘urta fondlaridan oladilar. Ko‘pgina kompensatsiya miqdori xususiy sektordagi tadbirdorga bog‘liq bo‘ladi va 70% dan oshmaydi. Qator mamlakatlarda

homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha ta’til xuquqi, sug‘urta badallarini to‘lash va homiladorlikka qadar shu ishda qancha muddat ishlaganligiga bog‘liq bo‘ladi.

6. O‘limni kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlash sohasidagi demografik siyosat

Aholi sog‘lig‘ini saqlash va o‘limni kamaytirish soxasidagi siyosat, tug‘ilishni tartibga solish siyosatiga nisbatan, ijtimoiy siyosatga yaqinroq integrallashgan. Bunday mustaxkam intategrallashuvni asosiy sababi uning ikki turda namoyon bo‘ladigan universalligidadir.

Birinchidan, xar qanday sivilizatsiyalashgan jamoatdan ushbu sohadagi siyosat maqsadining o‘zi universaldir. Inson xayotini uzaytirish, uning sifatlarini, ya’ni sog‘lom va aktiv xayot davrini yaxshilash asosiy gumanitar qadriyatlar jumlasiga kiradi. Shu sababli, bu soxada olib boriladigan siyosatning maqsadlari xech qanday baxs munozaralarini keltirib chiqarmaydi; insoniyat jamiyatining rivojlanishining ma’lum davrlari va epidemiologik o‘tishning turli bosqichlarida bo‘lgan konkret axoli to‘plamlari (xududlari, davlatlari)ga nisbatan xarakatlarning doimiy yo‘nalishlari o‘zgartiriladi va maqsadga erishishning adekvat va samarali usullari hamda choralarini tanlanadi.

Ikkinchidan, axoli sog‘lig‘ini saqlash va o‘limni kamaytirish sohasidagi siyosat xam, umuman ijtimoiy siyosat kabi erta qarish, kasalliklarni ko‘payishi, salomatlikning pasayishi oqibatida aholining yo‘qotishlarini kamaytirishga qaratiladigan ushbu siyosat ta’sir jixatdan universal, chunki bu siyosatning maqsadlari barcha axoli uchun yagona bo‘lib, axolining barcha ijtimoiy, demografik, xududiy va boshqa guruxlarini, davlat oldida sog‘liqni saqlash va inson xayotini uzaytirish dasturlarini amalga oshirishda tenglikligi va salomatlik extiyojlarini qondirishdan xech qanday diskiriniminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutadi.

Aholini sog‘lig‘ini saqlash va umrini uzaytirish bo‘yicha uzoq muddatli siyosatni ishlab chiqishda har qanday davlat uchun bu siyosatning ikkita o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari bo‘lishi lozim. Birinchisi aholi salomatligini va o‘limning yosh jinsiy kesim bo‘yicha shakllanish tarixi va xozirgi tendensiyalarning holati haqida umumiy va alohida xududiy, ijtimoiy, etnik va boshqa adekvat tasavvurlarning mavjudligi. Ushbu holatning batafsilligi olib boriladigan siyosatning yaqin va uzoq istiqbolli dasturlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholi sog‘lig‘ini saqlash va o‘limni kamaytirish sohasidagi siyosatning ikkinchi tarkibiy qismi tahmin qilinayotgan siyosatning chora tadbirlari, yo‘nalishlari va prinsiplarini qo‘yishdan maqsad doirasida umumlashtiruvchi konsepsiadir. Nisbatan konsentrangan holatda ushbu konsepsiya BSSJning dunyodagi o‘limni kamaytirish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning tajribalarini umumlashtiruvchi “Barcha uchun salomatlikka erishish bo‘yicha” strategiyasida o‘z aksini topgan. Bu tajriba shuni ko‘rasatadiki, insonlar faqat iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida qaralmay, insoniyat insoniy omildan iborat bo‘lib qolmasdan va iqtisodiy o‘sish kishilik jamiyatining hisobiga emas, aksincha ularning qiziqishlari yo‘lida amalga oshirilsagina, strategiya samarali bo‘lishi mumkin. Bu siyosat deklaratsiya emas, biroq real

faoliyatning zamonaviy ta'minotidir. Bu faoliyat natijasida rivojlangan mamlakatlarda ilgari ham, hozirda ham insoniy kapitalni rivojlantirishga anchagina mablag'larning investitsiyasi davom etib kelmoqda. Buni sog'liqni saqlash strategiyasida qo'llanilganda eng kamida quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilishni anglatadi.

Sog'liq xuquqini insonning eng muhim xuquqlaridan biri deb tan olinishi. Davlat har bir insonning qadrini, shuningdek salomatlik borasida barcha insonlarning xuquqlarini, majburiyatlarini va javobgarliklarini tengligini tan oladi va tasdiqlaydi.

Salomatlik va uni muxofaza qilish masalalaridaadolat. Salomatlik va uni muxofaza qilish 2 ta asosiy aspektni o'z ichiga oladi: kambag'allik va u bilan bog'liq salomatlik va xavf soluvchi amallarni qisqartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy iqtisodiy siyosat olib borish; alohida extiyojlarga ega bo'lgan (sog'lig'idagi muammolar, ijtimoiy va iqtisodiy holatga ko'ra) aholi guruhlarini izolyatsiyadan himoyalash va ularga kerakli tibbiy sanitar yordamni olishlari uchun imkon yaratish. Alohida insonlar, aholi guruhlari, tashkilotlar va jamoat sektorlarining sog'liqni saqlash faoliyatidagi ishtiroki va javobgarligi. Bu prinsip salomatlik fenomenining multifaktor tabiatini tushunishga asoslangan va ikkita asosiy elementdan: barcha sektorlar salomatlik uchun javobgarlikni tan olishlari va ularni sog'liqni saqlash faoliyatiga jalb qilishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda sog'liqni saqlash masalalariga tegishli siyosatni ishlab chiqilishi va amalga oshirishida aholining ishtirokidan iborat. Salomatlikni mustaxkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda epidemiologik o'tish tarixi va epidemiologik jarayonlarning hozirgi holatini hisobga olish inson hayotini, uning aktiv va sog'gom davrini maksimal uzaytirish singari uzoq muddatli ulkan maqsadlar bilan bir qatorda real holatda adekvat bo'lgan maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yishni nazarda tutadi. Bunday masalalar jumlasiga aholining ba'zi yosh jinsiy guruhlari, ijtimoiy xavf yuqori (ishsizlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar, vaxokazo) guruhlari orasidan o'lim va kasallanishning alohida sabablari dinamikasidagi salbiy tendensiyalarni yengish zaruriyati kiradi. Bu maqsadlar doirasida amalga oshiriladigan dasturlar ko'p jixatdan (ekstremnyiy) konyunktur xarakterga ega bo'lsada, kishilarning xayoti va salomatligini saqlash uchun kurashlarning bosh strategiyasiga qarshilik qilmaydi. Bundan tashqari salomatlik va o'lim trendlarining ko'pchilik salbiy o'zgarishlari ushbu sohadagi ijtimoiy siyosatning konseptual va taktik kamchiliklari natijasida yuzaga kelganligi sababli, antikrizis dasturlar bosh strategianing asosiy korreksiyalovchi asbobi bo'lib xizmati qiladi.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Demografik siyosatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Demografik siyosatni o'tkazishning qanday uslublarini bilasiz?
3. Demografik tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
4. Tug'ilish sohasida demografik siyosatni o'tkazishdan maqsad nimada deb o'ylaysiz?
5. Farzandli oilalarga beriladigan yordam choralari qanday guruhlarga ajratiladi?

6. O‘zbekistonda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida nafaqalarning qanday turlari beriladi?

7. Respublikada yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qanday imtiyozlar berilgan?

8. O‘zbekistonda o‘limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган З-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 140-б..

2. Abdurahmonov Q.X., Qurbonov S.P. Inson taraqqiyoti. O’quv qo’llanma. – Т.: Noshir, 2020. – 280 b.

3. Ирматова А.Б. Инновацион иқтисодиётда аёллар меҳнатини ташкил этиш. Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022..

4. Долинина Т.Н. Институциональные модели управления оплатой труда: в 2 ч. / Т. Н. Долинина. – Минск : БГТУ, 2019.

5. Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 683 с.

6. Victoria Reyes. The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age by Valerie Francisco-Menchavez. American Journal of Sociology. 2020

7. Naoki Aizawa, Hanming Fang. Equilibrium Labor Market Search and Health Insurance Reform. Journal of Political Economy. 2020.

8. Саградов А.А. Экономическая демография. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2016. – 297 с.

9. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

10. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

11. www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.

12. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

13. <http://coombs.anu.edu.au/ResFacilities/Demographypage.html> - Avstraliya milliy universitetining demografiya sayti.

14. <http://demoscope.ru> - «Demoskop Weekle».

15. <http://dmo.econ.msu.ru/demografia> - Moskva Davlat universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti aholishunoslik muammolarini o‘rganish bo‘yicha markaz sayti.

16. <http://esa.un.org/popin/> - BMTning rasmiy demografik sayti

17. <http://www.demographia.ru> - “Demografik tadqiqotlar” internet-jurnalining sayti.

2-mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda uning inson taraqqiyoti maqsadidagi roli va o‘rni (2 soat)

Reja:

1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo‘nalishlari
2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar
3. Pensiya tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari

1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo‘nalishlari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko‘rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsitsiya (pul ko‘rinishida beriladigan yordam) va imtiyozlar tizimidir.

Ijtimoiy nafaqalar – bu beg‘araz tarzda vaqtinchalik yoki doimiy ravishda aniq shaxs yoki shaxslar guruhiiga ma’lum miqdorda pul shaklida beriladigan to‘lovdır. Imtiyoz bir shaxs yoki shaxslar guruhiiga vaqtinchalik yoki doimiy tarzda ma’lum moddiy imtiyozlar pul yoki natura shaklida taqdim etiladi. Kompensatsiya aniq shaxs yoki shaxslar guruhiiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan harajatlarini to‘liq yoki qisman qoplashdir. Subsidiya esa fuqarolarga taqdim etiladigan moddiy qulaylik va sharoitlar uchun (to‘liq yoki qisman) ma’lum maqsaddagi to‘lovlardir.

Ijtimoiy yordam ham ijtimoiy, ham kasbiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra taqdim etiladi. Hozirgi davrda ijtimoiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, urush qatnashchilari, nogironlarning turli toifalari, ko‘p bolali oilalar, yolg‘iz keksalar, yosh oilalar, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalar, surunkali kasalliklarga chalingan fuqarolarga yordam ko‘rsatiladi. Kasb ko‘rsatkichlariga ko‘ra imtiyozlar huquqi og‘ir jimoniy va sanitar-gigienik me’yorlarga javob bermaydigan hamda shunga o‘xshash mehnat sharoitida band bo‘lgan fuqarolarga taqdim etiladi.

Ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar qo‘llanilish yo‘nalishlariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- turar-joy maishiy xizmat: turar-joy kommunal xizmatlari, telefon o‘rnatish va undan foydalanish, qurilish, uy-joy sotib olish va ta’mirlash, yoqilg‘i bilan ta’minalash va boshqalar uchun imtiyozlar;
- transport xizmatlari: shahar, shahar atrofi va shaharlararo transportda yurish, transport vositalari bilan ta’minalash bo‘yicha imtiyozlar hamda benzin sarfining kompensatsiyalanishi va boshqalar;
- tibbiy xizmat: tibbiy asbob, dorilar bilan bepul ta’minalash, sihatgoh-kurort xizmati;
- bolalarni ta’minalash: ovqatlanishini (nonushta, tushlik) tashkil etish, maktab va sport kiyimi bilan ta’minalash, mактабгача yoshdagи bolalar tarbiya muassasalari, yozgi ta’til oromgohlari va boshqalarga pul to‘lashdagi imtiyozlar;
- davlat ijtimoiy xizmati tizimida keksalar, nogironlar, kasallik tufayli mehnatga layoqatsizlar, shuningdek, qiyin ahvolda qolgan fuqarolar va voyaga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish.

Aholiga ijtimoiy yordamni taqdim etish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- pul to‘lovlari (ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va boshqa);
- natural yordam (oziq-ovqat mahsulotlari, zarur sanoat tovarlari, yoqilg‘i va boshqa);
- imtiyozlar (turar-joy, kommunal, transport va boshqa xizmatlarida).

Aytish joizki, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning samarali tizimini faqatgina uning turlari hamda ko‘p sub’ektli tashkiliy-huquqiy shakllarni uyg‘unlashtirish, undagi ishchi, ish beruvchi va fuqarolar (fuqarolik jamiyatidagi o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalarini tashkil etgan), shuningdek, davlat xokimiyati organlarining faol va ma’suliyatlari ishtiroklari asosida shakllantirish mumkin (1-jadval).

1-jadvaldan ko‘rinib turganidek, ijtimoiy muhofazaning shaxsiy o‘zini-o‘zi himoyalash, ijtimoiy xayriya tadbirdari, ijtimoiy hamjihatlik, davlat ijtimoiy ta’minoti va yordami, ijtimoiy himoyaning firma tizimlari kabi shakllari mavjud. Bu shakllar tashkillashtirish tamoyillari, to‘lov va xizmat turlari, moliyaviy manbalari hamda huquqiy ta’minoti bo‘yicha farqlanadi.

Tabiiyki, aksariyat fuqarolarga ijtimoiy to‘lovlari va imtiyozlar ularning moddiy holatlarini yaxshilash maqsadida taqdim etiladi. Amaldagi aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar ta’sirida shakllanib kelgan.

Oldingi yillardagi kam miqdordagi oylik maoshi turli ijtimoiy to‘lov va imtiyozlar ko‘rinishidagi qo‘sishma kompensatsiyalar kiritilishini taqozo etardi va ular aholiga ijtimoiy iste’mol jamg‘armalari hisobidan asosan bir xil tarzda to‘lanishi nazarda tutilgan.

Tenglashtirish tamoyiliga asoslangan ijtimoiy to‘lov va imtiyozlar tizimi iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida garchi aholi daromadlari keskin pasaygani sababli ijtimoiy yordamga ehtiyoj ko‘paygan bo‘lsa ham samarasiz bo‘lib qoldi.

Natijada shakllangan ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini pasaytiruvchi omillariga quyidagilar kirgan:

- to‘lov va imtiyozlarning aholining ko‘p toifasiga berilishi, moddiy ta’minlanganlikning deyarli e’tiborga olinmaganligi;
- moddiy yordam oluvchilarning farovonlikka o‘z kuchlari bilan erishish imkoniyatlarini to‘la inobatga olmaslik. Ma’lumki, buning oqibatida ijtimoiy boqimandalik, nofaollik, jamiyat marginalizatsiyasi kelib chiqadi;
- hududiy va munitsipal xokimiyat organlari o‘rtasida ijtimoiy yordam ko‘rsatish vakolatlari va javobgarligining aniq taqsimlanmaganligi. Bu esa, ijtimoiy to‘lov va imtiyozlarni taqdim etish va moliyalashtirishda javobgarlikdan bosh tortishga olib keladi;
- aholining an’anaviy kam ta’minlangan guruhlari: pensionerlar, nogironlar, yolg‘izlar, ko‘p bolali oilalarga e’tibor berilishi, aksariyat hollarda “yangi nochor”larning chetda qolishi.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy muhofaza tizimining samaradorlik mezoni sifatida uning kat ta’minlanganlik muammosini hal qilishga qaratilganligini va bu muammoning ijtimoiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlari orasida birinchi o‘ringa

qo‘yilganligini alohida e’tirof etish lozim. Biroq, amaldagi ijtimoiy muhofaza tizimi ko‘proq tenglashtirish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, resurslarni aholining eng kam ta’minlangan guruhlarida berilishida ba’zi cheklanishlarga ega. Ijtimoiy yordamga ajratilgan xarajatlarning umumiyligi yig‘indisidan faqat uchdan bir qismigina kam ta’minlanganlarga ajratilib, qolgan uchdan ikki qismi jamiyatning ushbu yordamisiz ham o‘zlarini ta’minlay olishlari mumkin bo‘lgan aholiga berilgan.

1-jadval

Ijtimoiy muhofazaning asosiy shakllari

| Tashkiliy-huquqiy shakllar tavsifi | Ijtimoiy muhofazaning asosiy shakllari | | | | |
|------------------------------------|---|---|---|--|--|
| | Shaxsiy o‘zini-o‘zi himoyalash | Ijtimoiy xayriya tadbirlari | Ijtimoiy hamjihatlik | Davlat ijtimoiy ta’minoti va yordami | Ijtimoiy himoyaning firma (korxona) tizimlari |
| Tashkillashtirish tamoyillari | Fuqarolarning o‘zining moddiy farovonligi uchun javobgarligi | Jamiyatning muxtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatishda ishtirok etish | Hamjihatlikda o‘z-o‘zini himoyalashda ijtimoiy hamkorlik | Davlatning davlat xizmatchilari va aholining kam ta’minlangan qatlamlari oldidagi javobgarligi | Korxona ishchilarini ijtimoiy himoyalashda ishchi va ish beruvchilarning ijtimoiy hamkorligi |
| Tashkillashtirish shakllari | Shaxsiy daromad va jamg‘armalar, shu jumladan, ko‘chmas mulk sotib olish, shaxsiy sug‘urta | Xayriya tashkilot va muassasalari | Majburiy va ixtiyoriy ijtimoiy (jamoaviy) sug‘urta | Ijtimoiy kam daromadli toifalar uchun davlat yordami shakllari | Korxona xodimlari uchun firma yordami shakllari |
| To‘lov va xizmat turlari | Turar-joy, tibbiy xizmat, ovqatlanish va boshqa kundalik ehtiyoj uchun to‘lovlar | Tekin ovqatlanish, qariyalarni parvarishlash | Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davrida yordam puli, nafaqalar, tibbiy yordam | Nafaqa, pensiya, tibbiy davolanish | Ishga borish uchun transportda yurish, davolanish va reabilitatsiya xizmatlari uchun haq to‘lash |
| Moliyaviy manbalar | Oylik maosh, xizmat puli, shaxsiy jamg‘armalar, tadbirkorlik faoliyatidagi daromadlar, qimmatbaho qog‘oz va ko‘chmas mulkdan olinadigan foyda | Xususiy va yuridik shaxslarning ehsonlari, fuqarolarning xayriya tadbirlari | Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalariga majburiy sug‘urta to‘lovleri (badallari) | Budget, shu jumladan, munitsipal manbalar (o‘z-o‘zini boshqarish organlari manbalar) | Korxona va tashkilotlarning daromadlari |
| Huquqiy ta’minot | Fuqarolik-huquqiy qonunchilik | | Ijtimoiy himoya sohasidagi qonunlar | | |

Moliya tanqisligi sharoitlarida ijtimoiy yordam kam miqdorda ajratilishi va vaqtida yetkazilib bermasligi bilan sharhanadi. Hozirgi vaqtida yordam oluvchilarining daromad miqdori faqat turar-joy subsidiyasi, bolalar uchun har oy beriladigan pul va kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi belgilanayotganda e'tiborga olinmoqda. Qonunga ko'ra, kam ta'minlanganlarga yordam ularning ariza asosida o'sha vaqtanoq yoki uch oygacha muddatdan kam bo'limgan davrda berilishi lozim. Arizada oila tarkibi, daromadi va mulki haqidagi ma'lumotlar yashash minimumi ko'rsatkichlari yig'indisi va oila a'zolarining umumiyligi daromadlari o'rtasidagi farqdan kelib chiqib, mazkur farq doirasida belgilanadi. Yordam pul to'lovlar shaklida (ijtimoiy nafaqa, subsidiya, kompensatsiya) hamda natural shaklda (yoqilg'i, oziq-ovqat, kiyim, poyabzal, tibbiy vositalar) bo'ladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining asosini umumiyligi ijtimoiy transfertlar, mahsulot va tovarlarga bo'lgan subsidiya va xizmatlar, shuningdek, toifalarga doir imtiyozlar tashkil etsada, u eng kam ta'minlangan aholi qatlamlariga resurslar ajratilishini ta'minlay olmayotgani kuzatilib, buning sababi – aniq manzillik yo'qligidadir.

Manzillik tamoyiliga ko'ra, ijtimoiy to'lov va imtiyozlar ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan ularga muhtoj aholi guruhiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Hozirgi davrda ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi nochorlikka qarshi kurashish ekani bois, manzil guruhi – bu kam ta'minlangan aholi tabaqalaridir.

2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar

Har qanday davlatda fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilishni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan ijtimoiy institutlarning butun bir tizimi mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan mamlakatlarda kasallik, baxtsiz hodisalar ro'y berganda yoki kasallik davrida qarorlar qabul qilishdagi shaxsiy erkinlik va javobgarlik ijtimoiy himoya tizimining tashkil qilinishida asosiy ustunlardan hisoblanadi. Biroq, insonning bir o'zi barcha hayot qiyinchiliklarini yengishga qodir emas. Moddiy ta'minlanmaganlikning ijtimoiy xatari ba'zi hollarda yengilmas kuch tusiga ega bo'ladi, bu nogironlikning erta shakllari, kasalliklarning og'ir va bedavo turlariga chalinganligidir. Shu sababdan aksariyat rivojlangan mamlakatlar XIX-asr oxirlaridayoq ijtimoiy xatar hollari boshlanganda yordam tashkil qilish zaruratini anglashgan. Odatda, ijtimoiy himoyaning ikkita instituti quyidagi shakllarda qo'llaniladi: davlat ijtimoiy himoyasi (beg'araz, pulsiz shakli) va ijtimoiy sug'urta (ijtimoiy himoyaning pullik shakli).

Jahon tajribasiga ko'ra, ijtimoiy himoyaning quyidagi beshta asosiy instituti mavjud :

1. Davlat ijtimoiy yordami. Mehnatga layoqatligining yo'qligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'limganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagandan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordami hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi o'tmishdagi shaxs daromadi yoki aholining umumiyligi turmush darajasi bilan bog'liq emas. Ijtimoiy yordam xayrixohlik tusiga egadir. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqatgina qonunchilikda qayd etilgan fuqarolar toifalariga beriladi. Mazkur himoya

institutining asosiy jihat – bu kam ta'minlangan aholi guruhlariga davlatning ijtimoiy-alimentli shartnomasiz yordam ko'rsatish munosabatlari (balalikdan nogiron, boshqa erta nogiron bo'lgan shaxs, pensiya olish uchun sug'urta maqomiga ega bo'lмаган fuqarolarga). Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishida uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtiroki ahamiyatsizdir. Ushbu tizim yordam pullariga muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga daromadning minimal darajasini ta'minlash maqsadida beriladi. Asosiy sabab – yashash minimumi hajmida mablag'ning mavjud emasligidir.

Ijtimoiy himoyaning ushbu institutining moliyaviy manbai sifatida hududiy va munitsipal budgetlar olinadi, ular umumiyligida soliq tizimi va maxsus maqsadda yig'iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

2. Davlat ijtimoiy ta'minoti. Ushbu himoya shaklida avvaldan ma'lum to'lovlardan bajarilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati (muhtojligi) e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari – umumiyligida va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat budgetidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mablag'lar.

3. Majburiy ijtimoiy sug'urta. Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur institutning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, ishchilar (ba'zan davlat)ning o'zaro yordam va o'z-o'zi uchun ma'sul bo'lish, hamjihatlikning omillariga asoslangan sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi.

Majburiy sug'urta to'lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog'liq hamda ular ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi (davlat ishtirokidagi) shartnomalar natijasida shakllanadi.

4. Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta. Sug'urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari doirasida yollanma ishchilar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta tizimi xususiy tusga ega bo'ladi, biroq ularning faoliyati maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, sug'urtalar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi, jumladan: bir ish beruvchida ishlashning minimal muddati, ushbu muddat tugagach, ishchida qo'shimcha himoya turlariga huquqi paydo bo'ladi. Masalan, pensiya ta'minoti huquqi; sug'urtalar uchun o'zgartirgan holda sug'urta bo'yicha qo'lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

5. Fuqarolarning shaxsiy (xususiy) sug'urtasi. Sug'urtaning bu turi shartnomalari asosida tuziladi va shu bois uning doiralari hamda amal qilinishi vaqt davrlari, ma'lum jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, xatar turlari bilan cheklangan bo'ladi. Ushbu shakl uchun sug'urta shartnomalari mavjudligi fuqarolarning o'zi uchun ma'sulligi xosdir.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy himoyaning beshta institutidan har biri o'ziga xos jihat, vazifa va qo'llanilish sohalariga egadir (2-jadval).

2-jadval

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlarning taqqoslama tavsiflari

| Ijtimoiy himoya institutlarining tavsifi va mexanizmlari | Ijtimoiy himoya tizimining asosiy institutlari | | | | |
|---|--|---|---|---|--|
| | Davlat ijtimoiy yordami | Davlat ijtimoiy ta'minoti | Majburiy ijtimoiy sug'urta | Ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta | Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Ijtimoiy kafolat va huquqlar vujudga kelishi asoslarini tartibga solish uslublari | Qonunga ko'ra: mehnat layoqatini yo'qotgan yoki unga ega bo'limgan va muhtoj fuqarolarga ijtimoiy-alimentli yordam, agar ular muhtoj deb topilsa | Qonunga ko'ra: davlat xizmatida band bo'lgan ma'lum mehnat stajiga ega shaxslariga | Qonunga ko'ra: majburiy sug'urta staji yoki nogironlik, boquvchisini yo'qotgan hollarda | Kelishuv munosabatlari asosida: ma'lum sug'urta staji va jamoa (tarmoq) shartnomasi mavjudligida | Shaxsiy sug'urta shartnomasi va sug'urta to'lovlarini to'laganligi asosida |
| Tashkil etish tamoyillari | Butun jamiyatning mehnatga layoqatsiz va muhtojlar uchun minimal daromadini hosil qilishning hamjihatli ma'suliyatni | Davlatning ish beruvchi sifatidagi o'z yollanma ishchilarini pensiya bilan ta'minlash uchun javobgarlik | Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning ma'suliysi, o'zaro hamjihatlik yordami, ishchilarning o'z ma'suliyatini his etishi | Ish beruvchilar kasbiy guruhlarining ishchilarini kasb mehnati xataridan muhofaza qilish bo'yicha hamjihatlik o'zaro yordami | Fuqarolarning ma'suliyatlichkeit, to'lov pullari va beriladigan mablag'lar ekvivalentligiga to'lagicha roya qilish |
| Moliyaviy manbalari | Soliqlar yordamida shakllanadigan budjet manbalari | Soliqlar yordamida shakllanadigan budjet manbalari | Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning majburiy sug'urta to'lovleri | Ish beruvchilarning (bajaruvchi) ixtiyoriy sug'urta to'lovleri | Fuqarolarning ixtiyoriy sug'urta to'lovleri |
| Amal qilish mexanizmlari | Muhtojlik bahosi – barcha oila a'zolari daromadi va mulki miqdorini, shuningdek, davlat imkoniyatlarini aniqlash | Davlat budgetining moliyaviy mablag'larini baholash, pensionerlar, pensiya miqdorini aniqlash | Mehnatga layoqatlilagini yo'qotish, keksalik, kasallik, boquvchidan judo bo'lish tufayli ish haqidan mahrum bo'lish, ijtimoiy xavf-xatar turlarini baholash | Kasb xatari tufayli mehnatga layoqatlilagini yo'qotish munosabati bilan yoki nafaqaxo'rлarning yoshini yashab yetish davri bilan bog'liq holda ish haqini yo'qotish xavfiga baho berish | Individual kasallanish xatariga baho berish, mehnatga layoqatlilagini yo'qotish |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Pensiya va nafaqa | Ijtimoiy pensiyalar | Pensiya va nafaqa | Pensiya va nafaqa | Pensiya va nafaqa miqdori | Sug'urta to'lovleri miqdori |

| | | | | | |
|---|---|---|--|---|---|
| miqdorini hisoblash tartibi | miqdori yashash minimumiga teng (o‘rtacha ish haqining taxminan 20 foizi). | miqdori davlat xizmatidagi ish staji va davomiyligi bilan bog‘liq va o‘rtacha ish haqining 55-70 foizni tashkil qiladi. | miqdori sug‘urta staji davomiyligi, ish haqi hajmi, pensiyaga chiqish yoshi bilan bog‘liq va o‘rtacha ish haqining 40-60 foizini tashkil qiladi. | korxonadagi (tarmoq) ish staji bilan bog‘liq va o‘rtacha ish haqining 20-30 foizini tashkil qiladi. | sug‘urta badallari hajmi va muddati davomiyligi bilan bog‘liq. |
| Boshqaruv shakllari | Davlat boshqaruvi | Davlat boshqaruvi | Ish beruvchi va ish bajaruvchi ta’sis etuvchilarining o‘zini-o‘zi boshqarish organlari | Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari | Xususiy sug‘urta kompaniyalari |
| Amal qilish uchun zarur shart-sharoitlar | Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar | Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar | Majburiy ijtimoiy sug‘urtaning huquqiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarining mavjudligi | Korxonalarning barqaror va samarali faoliyati | Aholida zahira uchun mablag‘larning mavjudligi, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikning ta’minlanganligi, huquqiy davlat mavjudligi, shaxsiy sug‘urta institutlarining rivojlanganligi |
| Ijtimoiy himoya institutining kuchli jihatni | Mehnatga layoqatsiz va muxtoj aholining keksalik davridagi ijtimoiy kafolatlari | Pensyaning yuqori va barqaror darajada bo‘lishi | Pensiya miqdorini belgilashda sug‘urta staji davomiyligi va ish haqi hajmi hisobga olgan holda ish olib borish | Keksalik va nogironlikdagi himoyaning qo‘sishimcha mexanizmi | Individual moliyaviy imkoniyatlar va qo‘sishimcha moddiy ta’minot ehtimoli |
| Ijtimoiy himoya institutlarining zaif jihatlari | Pensyaning past, ma’muriy harajatlarning esa yuqori darajasi | Moliyalashning budget manbai, kengayishga intilish | Zarur sug‘urta stajiga ega bo‘lgan shaxslarning yetishmasligi | Alovida korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi | Taqsimlanish fuqarolarning moliyaviy imkoniyatlari bilan cheklangan, o‘rtacha va yuqori daromadga ega tabaqlar tomonidan foydalilanadi. |

Bunda eng asosiysi (moliyaviy mablag‘i, keng qamrovliligi, xizmatlar xilmalilligi va sifatiga ko‘ra) – bu majburiy ijtimoiy sug‘urtadir. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda mavjud ijtimoiy sug‘urta turlari salmog‘iga barcha ijtimoiy himoya xarajatlarining 60-70 foizi, YalMning 15-25 foizi to‘g‘ri keladi. Nobudjet ijtimoiy jamg‘armalar salmog‘iga ijtimoiy himoya xarajatlarining 45 foiz, YalMning 8,0 foizi to‘g‘ri keladi.

Majburiy ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam tavsiflarining mutanosibligi 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Majburiy ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam tavsiflarining mutanosibligi

| Ijtimoiy sug‘urta | Ijtimoiy yordam |
|---|--|
| Moliyalash odatda ishchi va ish beruvchilarining sug‘urta badallari hisobiga davlat aralashuvi ehtimoli bilan amalgalashiriladi. | Davlat budgeti hisobidan moliyalanadi. |
| Ishtirok etish majburiy. To‘lovlar badallardan shakllangan sug‘urta jamg‘armalaridan to‘lanadi. | Qonunchilikka ko‘ra, to‘lovlar muxtojlarning ma’lum toifalariga beriladi. |
| Aksariyat hollarda qo‘srimcha mablag‘ talab qilinmaydi, chunki jamg‘armalarning bir qismi daromad olish maqsadida sarmoya qilinadi. | Muhtojlikka baho berilishda shaxslarning mulki miqdori aniqlanadi. Ba’zida ma’lum jihatlar qayd etilmaydi (katta miqdorda bo‘lmagan shaxsiy mablag‘). |
| Shaxsning nafaqa puli olish huquqi; uning muhtojligi qayd etilmagan tarzda olishi mumkinligini tasdiqlovchi xujjalas asos bo‘ladi. | Nafaqa berishdan maqsad – shaxsning daromadlari miqdorini ma’lum minimumgacha yetkazish, bunda boshqa omillar ham inobatga olinadi (oila kattaligi, majburiy to‘lovlar). |
| To‘lov va nafaqalar miqdori shaxs kimligi (beva, nogiron va h.k.) yoki qancha daromad topishi bilan bog‘liq. | Nafaqa miqdori oldingi ish haqi yoki hayot darajasi bilan bog‘liq emas. |
| Ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarini sug‘ortalash sxemalari odatda to‘laligicha ish beruvchi tomonidan moliyalanadi. | Ijtimoiy yordamning farovon turmush tarzi bilan umumiyligi jihatlari mavjud, biroq ijtimoiy yordam nochorlikning keskin shakllari va ijtimoiy kamsitilishga yo‘l qo‘ymaslik muammosini hal etishga qaratilgan. |

Sug‘urtani (shaxsiy va majburiy sug‘urtalarni) ijtimoiy himoyaning boshqa institutlaridan farqlovchi tomoni shundaki, bu shaklda sug‘urtalangan shaxs faqatgina avval sug‘urta qilingan va sug‘urta zarurati tasdiqlangan shart bilan mablag‘ olishi mumkin. Umuman olganda, boshqa shartlar qo‘yilmaydi. Mazkur holat muxtojlikni tekshirish zaruratidan ozod qiladi.

Ijtimoiy sug‘urta tizimi boshqa ijtimoiy himoya tizimlaridan (ijtimoiy yordam, shaxsiy sug‘urta) uning asosini kelgusida paydo bo‘lishi ehtimoli mavjud ehtiyojlarning turlari tashkil qilganligi (ish haqining o‘rnini qoplash, kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik tufayli) bilan farqlanadi, shuningdek, u mehnat munosabatlari (ish bilan band aholining majburiy sug‘urtalanishi), sug‘urtalanganlarning o‘z huquqlarini amalga oshirishlarining ijtimoiy kafolatlari bilan ham chambarchas bog‘likdir.

Shaxsiy sug‘urta hamda ijtimoiy yordam institutlari bunday masalalarini yechishga qodir emas. Shaxsiy sug‘urta aholi katta qismining sug‘urta badallarini to‘lashga imkonni yo‘q. Davlat budgeti tomonidan ta’milnadanigan ijtimoiy yordamning ham moliyaviy imkoniyatlari cheklangan va u faqatgina jamiyatning mehnatga layoqatsiz a’zolari uchun mo‘ljallangan.

3. Pensiya tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari

1991 yili O‘zbekistonda tashkil etilgan pensiya jamg‘armasi moliyaviy jihatdan qashshoq bo‘lgan, chunki uning daromadlari harajatlarini qoplay olmasdi. Lekin, hukumat tomonidan 1997 yilda ko‘rilgan chora-tadbirlar yordamida pensiya tizimining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga va o‘scha paytdagi pensiya to‘lovleri bo‘yicha qarzlarni bartaraf etishga erishildi.

Hozirgi vaqtida budgetdan tashqari pensiya jamg‘armasining o‘z majburiyatlarini o‘tash bo‘yicha qarzlari yo‘q, biroq ushbu pensiya tizimini moliyaviy jihatdan to‘liq ishonchli deyishga hali erta. Bunga sabab kamida 3 oylik pensiya to‘lovleri bilan ta’minlab turuvchi zahira jamg‘armasining yo‘qligi, majburiy pensiya badallari miqdorining nisbatan yuqoriligi, kishilarning bu badallarini to‘lashdan qochishi va buning iqtisodiy raqobatbardoshlikka salbiy ta’siridir.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning ko‘pchiligi pensiyalarni belgilash va to‘lashni boshqaruvchi qonunlarning mukammal emasligi bilan bog‘liqdir. Bu eng avvalo, pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy badallar miqdori va pensiya miqdorining bir-biriga mos kelmasligida ko‘rinadi va ularning sabablari quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, jinsi bo‘yicha fuqarolarning pensiya jamg‘armasining daromadlar va harajatlar qismlarining tashkil topishidagi ishtiroki bo‘yicha tafovut: ayollarga pensiya olish huquqini qo‘lga kiritish uchun 20 yil mobaynida pensiya jamg‘armasiga badallarni o‘tkazib turish kifoya bo‘lsa, erkaklar uchun bu muddat 25 yilni tashkil etadi. Ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqish huquqiga egalar, erkaklar esa 60 yoshdan. Ayollar o‘rtacha 72 yil umr ko‘radilar, erkaklar esa 67 yil. Demak, shuni aytish mumkinki, ayollarning pensiya jamg‘armasining harajatlar qismidagi ulushi erkaklarnikiga qaraganda ikki barobar ko‘proq, ammo ularning daromadlar qismidagi ulushi erkaklarnikidan sezilarli darajada kamroqdir.

Ikkinchidan, erkaklar va ayollarni pensiya bilan ta’minalashdagi tafovut sababli ularning pensiya jamg‘armasining daromadlar qismidagi ishtirokining har yilgi ko‘rsatkichi ham keskin farq qiladi: ayollar uchun bu ko‘rsatkich asosiy pensiyaning 2,75 foizini tashkil etsa, erkaklar uchun 2,2 foizini tashkil etadi. Hamma gap shundaki, o‘rtacha ish haqining 55 foiziga teng bo‘lgan asosiy pensiyani ko‘lga kiritish uchun ayollar pensiya jamg‘armasida 20 yil mobaynida ishtirok etishlari kerak 55:20-2,75, erkaklar esa 25 yil (55%:25-2,2%).

Uchinchidan, respublikaning qonunlaridan ma’lumki, aholining bir qismiga guruhlari uchun pensiya jamg‘armasining daromadlar qismida ishtirok etmaslik huquqi berilgan (masalan, harbiy xizmatchilarga).

To‘rtinchidan, qonunlar aholining ko‘pgina guruhlariga bir qator imkoniyatlar

yaratadi: ish stajini ikki barobar ko‘paytirilishi (masalan, harbiylarning 1 yillik xizmati 2 yil ish staji deb sanaladi), ishchilarning turli sabablarga ko‘ra ishlamagan davri ham ish stajiga qo‘shilishi (I-guruh nogironni parvarish qilish bilan band bo‘lsa, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bola, 3 yoshgacha bo‘lgan bola tarbiyasi bilan shug‘ullansa), pensiya jamg‘armasiga badal to‘lash bilan o‘z hissasini qo‘shmagan davri ham ish stajiga qo‘shilishi (ta’lim olsa, harbiy xizmatda bo‘lsa, farzandlariga qarasa), pensiyaga turli qo‘shimcha to‘lovlarning qo‘shib borilishi va h.k.

Pensiya tizimini isloh qilishda shu narsani hisobga olish kerakki, respublikada mehnatga layoqatli aholining atigi 42 foizi pensiya jamg‘armasiga to‘lovlar o‘tkazadi, qolgan 48 foizi esa qonunlarga muvofiq ushbu to‘lovlarni o‘tkazmaslikka ruxsat berilgan. Ko‘rinib turibdiki, agar pensiya jamg‘armasining daromadlari qismida ishtirok etuvchi mehnatga layoqatli aholining ulushini ko‘taradigan bo‘lsak, (imtiyozlarni bekor qilish, ish haqini butunlay qonuniy bo‘lishini ta‘minlash va hokazo orqali) pensiya jamg‘armasining moliyaviy ahvolini yaxshilash, balki majburiy pensiya to‘lovlari miqdorini kamaytirish ham mumkin bo‘ladi.

Pensiya tizimini takomillashtirishning yana bir yo‘li – bu imtiyozlarni bekor qilishdan iborat. Dunyodagi har qanday rivojlangan mamlakatda ham bizzagi kabi imtiyozlar mavjud emas. Rejali iqtisodiyot tizimida bunday imtiyozlar ma’lum bir zararli, sog‘liq uchun xavfli mehnat sharoitida ishlaydigan va ish haqi kam bo‘lgan xodimlarga ovunchoq vazifasini o‘tagan. Ammo, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti tizimi hukm surayotgan davrda korxonalar o‘z xodimlari uchun mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o‘zлari ish haqi hajmini belgilab turgan paytda, bunday imtiyozlar o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari, avval zararli hisoblangan ishlab chiqarishlar yangi texnologiyalarning tadbiq etilishi hisobiga hozir zararli hisoblanmaydi. Agar korxona bunday texnologiyalarni tadbiq qilmas ekan, u o‘z ishchilarining tezroq pensiyaga chiqib ketishini o‘zi ta‘minlashi shart.

Pensiya tizimini isloh qilishda demograf olimlarning prognozlarini hisobga olish lozim. Ularning prognozlariga qaraganda, 2020 yilga kelib O‘zbekistonda pensiya yoshidagi aholi sonining o‘sish sur’ati mehnatga layoqatli aholining sonining o‘sishi sur’atidan oshib ketadi. Buning natijasida 2025 yilga kelib pensionerlarning soni 2005 yildagiga nisbatan ikki barobar ko‘p bo‘ladi va bu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli aholidan ko‘ra tezroq o‘sadi. Ma’lumki, bu pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, pensiya jamg‘armasining harajat qismining o‘sish darajasi daromadlar qismining o‘sish darajasidan yuqori bo‘ladi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun hozirdan pensiya tizimini isloh qilishni boshlash kerak. Chunki, hozir demografik nuqtai nazardan ushbu islohotlarni amalga oshirish uchun eng qulay vaqtdir.

Rivojlangan mamlakatlar pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga xodimlarning pensiyaga chiqish yoshlarni ko‘tarish yo‘li bilan erishgan. Masalan, MDH tarkibiga kiruvchi Rossiya, Belorusiya, Ukraina va O‘zbekistondan tashqari aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini qonun yo‘li bilan ko‘tardi. Jumladan, Ozarbayjon, Moldova va Turkmanistonda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun – 62 yoshga, ayollar uchun – 57 yoshga, Armanistonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Qozog‘istonda erkaklar

uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 58 yoshga ko‘tarilgan.

O‘zbekistonda pensiya jamg‘armasi moliyaviy holatini yaxshilashning qator imkoniyatlari mavjud. Ulardan biri pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanishdir. Ta’kidlash lozimki, respublikada pensiya jamg‘armasi mablag‘larining 87,5%ini haqiqiy pensiya to‘lovlari, qolgan 12,5%ini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo‘s Shimcha harajatlar (pensiyaga ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to‘lovlari) tashkil etgan. Bizningcha, moliyalash bilan qoplanmaydigan qo‘s Shimcha harajatlar davlat budgetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, birinchidan, pensiya jamg‘armasi mablag‘larining maqsadliligi oshardi, ikkinchidan, pensiya jamg‘armasining moliyaviy ahvoli yaxshilanardi.

Respublikada pensiya jamg‘armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo‘llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirishdir. Fikrimizcha, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagi xususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Jumladan:

- oilada beshinchi va undan keyingi bo‘lib tug‘ilayotgan bolalar sonining kamayishi;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e’tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og‘ir hisoblanmasligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar respublikada imtiyozli pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o‘rtacha yoshini erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko‘tarish imkonini beradi.

O‘zbekistonda pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini yaxshilash yo‘llaridan yana biri erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirishdir. Yangi iqtisodiy munosabatlар sharoitda O‘zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosa ta ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar sodir bo‘lmoqda. Jumladan:

- ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ayollar salmog‘i ortib bormoqda;
- ayollarda erkaklarga nisbatan tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi saqlanmoqda;
- reproduktiv yoshdagи ayollarda tug‘ish hollari keskin kamayib bormoqda.

Ko‘rib o‘tilgan ijtimoiy-demografik xususiyatlar erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish imkonini yaratadi. Mazkur tadbirni amalga oshirilishi o‘rtacha pensiyaga chiqish yoshini 3 yilga ko‘tarishga imkon beradi.

Bu mexanizmlarni amalga oshirish natijasida o‘rnini bosish o‘rtacha koeffitsientini ko‘tarish va yangi to‘g‘rilash koeffitsientlarini joriy qilish yo‘li bilan ish haqi va pensiyalar minimal miqdorlarini tenglashtirish mumkin bo‘ladi.

Albatta, yuqorida keltirilgan pensiya ta’mintoni takomillashtirish mexanizmini to‘laligicha va bir vaqtida amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki, ularning samarasi 10-12 yildan keyin namoyon bo‘ladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pensiya tizimini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri bu jamg‘arishga asoslangan pensiya tizimini

shakllantirishdir. Lekin, bu tizim birdamlik pensiya tizimining o‘rnini bosish kerak emas. Jamg‘arishga asoslangan pensiya tizimini qo‘srimcha, davlatga aholining yashash sharoitini yaxshilash va davlat pensiya tizimi oldidagi majburiyatlarini bajarishda yordam beradigan tizim sifatida ko‘rish lozim. Masalan, jamg‘arishga asoslangan pensiya tizimi imtiyozlarni bekor qilish o‘rnini qoplashi mumkin.

Bundan tashqari, jamg‘arishga asoslangan pensiya jamg‘armasi mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali investitsiya manbaidir. Buni juda ko‘p mamlakatlar tajribasi asosida ko‘rish mumkin. Masalan, Chilida iqtisodiyotning rivoji uchun ketayotgan moliyaviy manbalarning asosiy qismi aynan jamg‘arishga asoslangan pensiya jamg‘armalari tomonidan ta’minlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jamg‘arishga asoslangan pensiya jamg‘armalarini tashkil etish hamda unda ishtirok etish butunlay ixtiyoriy bo‘lgan nodavlat pensiya jamg‘armalari tarmog‘ini yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Albatta, bunday jamg‘armalarni tashkil etish qoidalarni ta’minlovchi va faoliyat jarayonini boshqarib turuvchi qonunlar talab qilinadi. Ularning investitsion faoliyatini esa maxsus boshqaruvchi kompaniyalar orqali amalga oshirish mumkin. Bu esa, mablag‘ qo‘yishning samaradorligini va uning saqlanishi kafolatini ta’minlovchi asosiy shart hisoblanadi.

Fikrimizcha, bunday tizimni bosqichma-bosqich yaratish kerak. Bosqichma-bosqich deyilganda, quyidagi choralarning ketma-ket amalga oshirilishi tushuniladi:

- pensiya jamg‘armalarining himoyasini ta’minlab beruvchi va nodavlat pensiya tizimi ishtirokchilarining munosabatlarini boshqarib turuvchi qonunlar va me’oriy hujjatlarni qabul qilish;
- davlat pensiya tizimiga bo‘lgan majburiy mexanizmni mukammallashtirish hisobiga ish beruvchilar nodavlat pensiya tizimida ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratib berish;
- yirik korxona xodimlari uchun nodavlat pensiya jamg‘armalarini shakllantirish.

Davlat ushbu tizimni yaratish bo‘yicha tashabbuskor va ular faoliyatining qonuniyligini ta’minlovchi kafil bo‘ladi. Masalan, jamg‘arishga asoslangan pensiya tizimida juda ko‘p moliyaviy mablag‘lar yig‘iladi va davlat tomonidan belgilanadigan “o‘yin koridori” moliyaviy piramidalar paydo bo‘lishining oldini olishi va ular faoliyatining aniq qonunlarga asoslanganligini belgilash hamda mablag‘ qo‘yishdagi xavf-xatarlarning minimalligini ta’minlab beradi.

Davlatning xususiy pensiya jamg‘armalarini boshqarishdagi asosiy choralari quyidagilar hisoblanadi:

- jamg‘armalar faoliyatini litsenziyalash;
- ularning moliyaviy holatini doimiy monitoring qilish;
- jamg‘armalarda majburiy buxgalteriya hisobini olib borishni tekshirish va har yili mustaqil auditni o‘tkazish;
- moliyaviy xavf-xatar darajasi katta bo‘lgan loyihalarga kapital qo‘yishning oldini olish maqsadida pensiya aktivlarini saralash ustidan nazorat qilish.

Nodavlat pensiya jamg‘armasi o‘z mulki va aktivlari bilan barcha ishtirokchilar oldida ma’suliyatni va javobgarlikni oluvchi mustaqil yuridik shaxs

bo‘ladi. Davlat bunday pensiya jamg‘armalarining qarzlari bo‘yicha majburiyatni o‘z bo‘yniga olmasligi kerak. O‘z navbatida, pensiya jamg‘armasi ham davlat majburiyati uchun javobgar emas. Pensiya jamg‘armasi tomonidan beriladigan pensiya miqdori pensionerning qo‘yan mablag‘i miqdori va bu mablag‘larni investitsiyalash evaziga olingan daromad miqdori bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

O‘tish davrining xususiyatlarini hisobga olgan holda nodavlat pensiya jamg‘armalari, hech bo‘lmaganda birinchi bosqichlarida iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qudratli korxonalar yoki tijorat banklari tomonidan tashkil etilishi lozim. Bunda soha hudud jihatdan bir nechta korxonalarning pensiya jamg‘armalari korporativ jihatdan birlashishi ham mumkin. Aytish kerakki, nodavlat pensiya jamg‘armalarining faoliyati pensiya badallarini yig‘ishga, pensiya zahiralarini qayta joylashtirishga, pensiya majburiyatlarini hisoblashga va nodavlat pensiya jamg‘armasi ishtirokchilariga pensiya to‘lashga qaratilishi lozim. Bunday faoliyatni yuritish uchun davlatdan ruxsat olish majburiy bo‘lishi kerak.

Nodavlat pensiya jamg‘armalariga badallar o‘tkazish korporativ shartnomalar asosida ish beruvchi va ishchi tomonidan bajarilishi zarur. Bunday jamg‘armalar faoliyatida ishtirok etish uchun fuqarolarni jalb qilishda soliqqa tortishga aloqador usullardan foydalanish lozim.

Nodavlat pensiya jamg‘armalarida ishchilar va ish beruvchilar ishtirokining ijobjiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- keksayganda o‘ziga davlat pensiyasidan tashqari yetarli mablag‘larni yig‘ish imkoniyati;
- yig‘ilgan mablag‘larning jamg‘arma rahbariyati va maxsus boshqaru kompaniyalari tomonidan sifatli boshqarilishi natijasida ularning ko‘paytirilishi;
- qatnashchilar bilan jamg‘arma o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar jarayonining qulayligi;
- moliyaviy majburiyatlarning xususiy pensiya jamg‘armasi ishtirokchilar o‘rtasida tasdiqlanishi;
- daromadlarning soliqqa tortish bazasi qisqarishi hisobidan joriy soliq to‘lovlaring kamayishi;

Nodavlat pensiya jamg‘armalarini yaratishning xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchilarning undagi ishtiroki bir qator shart-sharoitlar bilan bog‘liqdir:

- korxonaning malakali kadrlar salohiyatini saqlab qolishiga va uni mustahkamlashga urinishi (ba’zi ish beruvchilar o‘z ishchilari uchun pensiya jamg‘armasiga to‘lovi amalga oshirishda ma’lum imtiyozlar yaratadi);
- xususiy pensiya jamg‘armalarida ishtirok etayotgan ishchilar uchun badal to‘lovinci amalga oshirish evaziga firmalarning soliq to‘lovleri miqdorining kamayishi (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida korxonalarining soliqqa tortiladigan badallari ularning o‘z xodimlari uchun xususiy pensiya jamg‘armalariga o‘tkazgan badallarining umumiy miqdoriga kamaytiriladi. Keyinchalik soliqlar pensiya jamg‘armasi ishtirokchisi bo‘lgan xodim tomonidan qo‘sishma pensiya to‘lovleri olinishi paytida ushlab qolinadi).

Shunday qilib, yuqorida ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarni amaliyotga tadbiq etish, birinchidan, pensiya jamg‘armasi moliyaviy barqarorligini ta’minlashga, ikkinchidan, pensionerlarning iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.

Bahs munozaralar uchun savollar

1. Ijtimoiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o‘rnini tushuntirib bering.
4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlarni sanab bering.
5. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi davlat va nodavlat jamg‘armalari faoliyatini nimalardan iborat?

Foydalaniman adabiyotlar

1. Abduraxmanova G.Q., Abduramanov X.X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. O‘quv qo’llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2018. - 312 b.
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 476 b.
3. Chelovecheskie razvitiye: novoe izmerenie sotsialno-ekonomiceskogo progressa. Uchebnoe posobie. - M.: Prava cheloveka, 2008. - 636 s.
4. Kalandar Abdurakmanov, Nodira Zokirova. Human Development. Textbook. – norderstedt, Books on Demand, 2014, 428 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // www.lex.uz.
3. Mirziyoy Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Chelovecheskoe razvitiye. Uchebnoe posobie. / pod obЩey redaksiey d.e.n., prof. Abduraxmanova K.X. i d.e.n., prof. Jumaeva N.X. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 376 s.
5. Doklad o razvitiii cheloveka 2010. Realnoe bogatstvo narodov: puti k razvitiyu cheloveka / Per. s angl. PROON. – M.: Ves Mir, 2010. – 244 str.
6. Chelovecheskoe razvitiye. Uchebnik. – T.: UMED, PROON, 2008. - 462 str.

3-mavzu. Kambag‘allik va inson taraqqiyoti (2 soat)

Reja:

1. Kambag‘allik tushunchasi. Kambag‘allik darajasi qanday o‘lchanadi?!
2. O‘zbekistondagi kambag‘allik haqida ma’lumot. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar.
3. Kambag‘allikka qarshi choralar: makroiqtisodiy va mikro darajadagi siyosat

1. Kambag‘allik tushunchasi. Kambag‘allik darajasi qanday o‘lchanadi?!

Kambag‘allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilmoqda. O‘zbekistondagi kambag‘allik haqida ma’lumotlar, ular kimlar, qaerda va qanday hayot kechirishadi.

2020 yilning 27 fevralida kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz aholisining 12-15% yoki 4-5 million aholi kambag‘allik sharoitidaligini ta’kidladi. Bu ularning kunlik tushumi 10-13 ming so‘mdan oshmasligini anglatadi.

Hozirgi kunda kambag‘al oilaning shaxsiy kompyuter bilan ta’minlanganligi Respublikadagi o‘rtacha oiladan 12 barobarga, shaxsiy mashina bilan – 11 barobarga, konditsioner bilan – 8 barobarga, changyutgich bilan – 4 barobarga, kir yuvish mashinalari bilan – 4 barobarga, muzlatgich bilan – 2 barobarga, televizor va uyali aloqa vositalari bilan – 1,5 barobarga kamligi kuzatiladi.

Aholining kambag‘al qatlami mamlakatga xos bo‘lgan tezkor iqtisodiy o‘sishdan foyda ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo‘sha olmaydi. Davlat bepul o‘rta ta’limni ta’minlaydi, tibbiy xizmatlarning asosiy paketini kafolatlaydi, “ijtimoiy ahamiyatli va xavfli” sharoitlar uchun parvarish zaif deb tasniflangan guruahlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta’minlangan oilalarga imtiyozlar beradi. Ammo, bundanda ko‘pi amalga oshirilishi lozim.

Kambag‘allik holatida tushib qolishdan ko‘ra, undan chiqib ketish ko‘p karra qiyinroq. O‘zi qishloq sharoitida yashovchi kambag‘al odam kasal bo‘lib qolgan sharoitda doktorga uchrashish uchun shaharga qatnashiga to‘g‘ri keladi. Uning dori-darmon xarajatlariga yo‘l kira ham ko‘shiladi. Kambag‘al oila farzandi pul topish ilinjida ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi mumkin, bu esa uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ta’sir etadi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda “kambag‘allik” va “kambag‘allik qopqoni” tushunchalari birga ishlataladi.

Kambag‘allik tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Ba’zilar kambag‘allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa –insonning jamiyat

ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'lijni-saqlash sohasidagi to'siqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiylar qaraganda, kambag'allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko'nikma va usullarni talab qiladi.

Belgilangan davrda inson farovonligi darajasini o'lchanadiga foydalaniladigan 2 ta ko'rsatkich mavjud: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol xarajatlari. Daromadlarning iste'molga nisbatan o'zgaruvchan bo'lishi, ba'zi daromad manbalarini aniqlashning murakkabligi, daromadlar to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlarning keltirilish darajasi yuqori bo'lganligi uchun amaliyatda 2-ko'rsatkichdan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning bilan birga, farovonlik ko'rsatkichi sifatida iste'mol xarajatlari ma'lumotlaridan foydalanishda esa vaqt o'tishi bilan narxlarning o'zgarishini, ayrim mamlakatlar o'rtasidagi narxlar farqini, uyda iste'mol qilinadigan tovarlar (shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari), uy xo'jaliklari tomonidan qabul qilinadigan jamoat tovarlari va xizmatlari narxlar (bepul yoki subsidiyalangan tibbiy yordam, maktab ovqatlari, xalq ta'limi) kabilarni hisobga olgan holda bu ko'rsatkichga ba'zi to'g'rilashlarni kiritish lozim bo'ladi.

Shu sababli, kim kambag'al yoki kambag'al emasligini aniqlash uchun iste'mol (daromad) to'g'risidagi bilimlarga asoslanib, odatda "kambag'allik chegarasi" deb nomlanadigan kambag'allikning eng yuqori darajasini aniqlab olish lozim. Bu esa mushkul vazifadir, chunki kambag'allik ta'rifi bo'yicha ham, uning chegarasi bo'ladigan narsada ham mutaxassislar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Shu bilan birga, kambag'allik chegarasining eng ko'p ishlatiladigan ta'riflari quyidagilardir:

Oziqlanishga asoslangan kambag'allik darjasasi. Qashshoqlik ma'lum ko'rinishlarni oladi va ochlik ana shunday ko'rinishlardan biridir. Bunday holda, farovonlik aholi jon boshiga kunlik kilokaloriyalar iste'moli bilan o'lchanadi va ushbu kategoriyalidagi odamlar uchun kunlik energiya sarfi miqdori bilan taqqoslanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kuniga energiya sarfi chegarasini o'rtacha 1800 kilokaloriya qilib belgilashni tavsiya etadi. Bu ko'rsatkich yoshga, jinsga va inson faoliyat darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Oziq moddalar yetishmovchiligining boshqa shakllari, masalan, oqsillar yoki "yashirin ochlik" deb nomlangan ba'zi mikroelementlar uchun ham chegara belgilanishi mumkin. Bunday holatda ham tavsiya etilgan minimal darajadan kelib chiqib kambag'allikning umumiylarini belgilash mumkin.

Xalqaro kambag'allik chegarasi. Ushbu chegara Jahon banki tomonidan xalqaro taqqoslash uchun ishlatiladi. O'ta qashshoqlik chegarasi sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 1 dollar miqdorida belgilanadi, kambag'allik chegarasi esa kuniga 2 dollar miqdorida belgilanadi. So'nggi paytlarda ushbu kambag'allik chegaralari tegishli ravishda 1,25 va 2,5 dollarga ko'tarilgan. Hozirgi vaqtida dunyodagi eng kambag'al 15 mamlakat ushbu kambag'allik chizig'ilaridan foydalanadi. Biroq, hozirgi vaqtida, turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda, kambag'allikning boshqa chegaralari ham qo'llaniladi. Xusan, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan past

bo‘lgan davlatlar uchun kam ta’minlanganlik darajasi kuniga 3,2 dollar, daromadi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar uchun esa kuniga 5,5 dollarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Nisbiy kambag‘allik chegarasi. Qashshoqlik nafaqat mutloq, balki nisbiy tushunchadir. Odamlar o‘z iste’mol darajasini tegishli nazorat guruhidagi boshqa odamlar bilan taqqoslaganda o‘zlarining holatini sub’ektiv ravishda yomon baholashlari mumkin. Bu nisbiy mahrumlik tushunchasi tufayli odamlar o‘z mamlakatlari yoki jamoalaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan shaxsiy daromadlari yoki iste’mollar darajalariga ahamiyat berishadi. Nisbatan kambag‘allik chegarasini oddiy ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda munosib ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy integratsiya xarajatlari sifatida ham izohlash mumkin. Nisbiy kambag‘allik chegarasini qo‘llash Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu holda kam ta’minlanganlar sifatida mamlakatda eng kam iste’mol qiluvchi 25% odam tushuniladi.

Sub’ektiv kambag‘allik chegarasi. Aytishimiz mumkinki, kambag‘allik nafaqat mutloq yoki nisbiy standart, balki idrok hamdir. Bunday holda, uy xo‘jaligiga: "Siz qanday xarajatlarning qanday darajasini mutloq minimal deb hisoblaysiz?" deb so‘raladi va bu ularning haqiqiy xarajatlari darjasini bilan taqqoslanadi. Shunday qilib, amaldagi xarajatlari e’lon qilingan sub’ektiv minimumdan past chiqqanlar ulushiga kambag‘allik darjasini deb qaraladi. Ammo, bu yerda kambag‘allik darjasini, ko‘p hollarda, savolning qanday berilishiga bog‘liq.

2. O‘zbekistondagi kambag‘allik haqida ma’lumot. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar.

O‘zbekistonda kambag‘allikni o‘lchashda faqat dastlabki ikkita usul qo‘llaniladi. Oziqlanishga asoslangan usulning natijalari kambag‘allik darajasini 11,4% ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinci yondashuv natijalariga asoslanib esa kuniga 5,5 dollar chegarani oliganda kamta’minlanganlik darjasini 36,6% va 3,6 dollar deb olganda - 9,6%ni tashkil etadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, kambag‘allikning yuqori darjasini Samarcand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda kambag‘allik darajasini o‘rganish uchun foydalanimishi mumkin bo‘lgan omma uchun ochiq ma’lumotlar bazasini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ular bizga kambag‘allikni tavsiflash, uning omillari, shuningdek, aniq dasturlar va siyosiy islohotlarning kambag‘allikka ta’siri to‘g‘risidagi ko‘plab farazlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Masalan, kambag‘al bo‘lgan va bo‘limgan odamlar yoki uy xo‘jaliklarining xususiyatlarini taqqoslab, kambag‘allikning sababini aniqlash va unga qarshi kurashning aniq parametrlarini belgilash mumkin. Bunda ma’lumot quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilinishi mumkin:

- **Oila a’zolarining xususiyatlari:** yoshi, jinsi, millati, ma’lumoti va sog‘lig darjasini.
- **Uy xo‘jaligining demografik xususiyatlari:** oila boshlig‘ining jinsi, ishslash yoshidagi a’zolarga to‘g‘ri keladigan bolalar va qariyalar soni.
- **Mulk:** yer, chorva mollari, asboblar va ijtimoiy kapital.

- **Faoliyat turlari:** faoliyat sohasi, tomorqa faoliyati, bandlik turi.
- **Joylashuv:** qishloq / shahar, viloyat, tuman.
- **Kommunal xizmatlardan foydalanish:** elektr energiyasi, ichimlik suvi, tibbiyot muassasasi, mакtab, ijtimoiy yordam dasturlari.
- **Bozorga kirish va xususiy xizmatlar:** bozorlargacha masofa, yo‘l infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va b.

Masalan, Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaligining kambag‘al bo‘lishiga 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning mavjudligi, ishsiz oila a’zolarining borligi, qishloq joylarda yashashi, barqaror daromad manbalarining yo‘qligi va ularning norasmiy sektorda bandligi va mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi yomonligi kabi omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekistondagi kambag‘allikning yanada aniq tasvirini unga qarshi kurash bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar va tavsiyalarning mazmunini belgilaydi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kam ta’minlangan oila 7 kishidan iborat bo‘lib, oila boshlig‘ining o‘rtacha yoshi 50 yoshdan yuqori va u oliv ma’lumotga ega emas. Jumladan, 11% kamta’minlangan oilaning boshlig‘i ishsiz, 93% holatlarda esa oliv ma’lumotga ega emas va faqat 24% o‘rtalik maxsus ma’lumotga ega. Kamta’minlangan uy xo‘jaliklarining 43% doimiy ish joyiga ega emas. 93% markaziy isitish tizimiga, 96% markaziy kanalizatsiya tizimiga va 66% markaziy suv ta’minotiga ulanmagan.

Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida olib borgan shunga o‘xshash tadqiqotlar natijalariga ko‘ra esa respublikada kamta’minlangan uy xo‘jaliklarining ahvolini quyidagicha tavsiflanishi mumkin: ular 3 bolali qishloq joylarda istiqomat qiluvchi, oila a’zolarining ma’lumot darajasi yuqori bo‘lmagan va chet elda mehnat qila oladigan mehnatga layoqatli a’zosi bo‘lmagan uy xo‘jaliklaridir. Shu bilan birga, kamta’minlanganlik darajasi aniq mintaqaviy xususiyatga ega.

Ushbu natijalar Jahon bankining 2014 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotini inklyuziv diagnostikasi bo‘yicha xulosalari bilan mos keladi. Xususan, eng kamta’minlangan uy xo‘jaliklari bolalari ko‘payishi sababli kattaroq ekanligi, shuningdek, ishlaydigan kattalar soni kamligi qayd etilgan. Erkaklar orasida farovonlik darajasi har xil bo‘lgan guruhlar o‘rtasida mehnat holatida jiddiy tafovut yo‘q. Biroq kamta’minlangan ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ishtiroki ancha past, har uchinchi kam ta’minlangan oilaning boshlig‘i ayol kishi. Iste’mol (daromadlar) o‘rtasidagi tafovutni belgilovchi uchta eng muhim omil bu oila boshlig‘larining jinsi, ma’lumoti va bandlik holati.

Ushbu natijalar mamlakatning kambag‘allik muammosini hal qilishda aksariyat mintaqalarda ta’lim sifati, bandlik darajasi, uy-joy bilan ta’minlanganlik imkoniyatlari va yashash sharoitlari muhimligini tasdiqlaydi.

3. Kambag‘allikka qarshi choralar: makroiqtisodiy va mikro darajadagi siyosat

Kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha tavsiyalar kam ta’minlangan uy xo‘jaliklarining xususiyatlari, jamiyat hayotida ishtirok etishda iqtisodiy-ijtimoiy to‘sqliar va rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlari, shuningdek, makroiqtisodiy va mikro darajada siyosatga asoslangan bo‘lishi ularning muvofaqiyatini belgilaydi.

Inklyuziv biznes modellarini ishlab chiqish. Bugungi kunda dunyoda aholisining kam ta’minlangan qatlamlari energiya, suv ta’minoti, kanalizatsiya, axborot texnologiyalari kabi ko‘plab sohalarda sezilarli darajada qondirilmagan ehtiyojlarga ega. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining turg‘unligi sharoitida kam ta’minlangan guruhlar ishtirokidagi bozor segmentlarining jozibadorligi oshib bormoqda. Kambag‘allar jamiyatning iqtisodiy faol qismi sifatida, agar ularning ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirilsa, ishchilar yoki tadbirkorlar sifatida iqtisodiy o’sish jarayonlarida ham ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun zarur bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi muammosini hal qilish va kambag‘allarning ta’limiga investitsiya kiritish rivojlanishning asosiy omilidir.

Bundan tashqari, mazkur inklyuziv biznes modellari bozor sharoitlariga moslashtirilishi kerak, bu yerda institutlar, infratuzilma va ta’lim darajasi nisbatan past, taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar do‘konlarda arzon bo‘lishi, maqbul va faol ravishda reklama qilinishi kerak bo‘ladi. Bunday mahsulotlar tan narxi va sotish bahosi o‘rtasidagi kichik farq bilan tavsiflanadi, ammo savdo hajmi katta bo‘ladi. Bu nafaqat arzon tovarlarni, balki kambag‘allarning qondirilmagan ehtiyojlarini qondiradigan qadriyatlarni yaratishni ham anglatadi.

Shu asosda:

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi inklyuziv biznes uchun to‘sqliarni (masalan qonunlar va normalarning past samaradorligi yoki ularning mavjud emasligi, byurokratiya, qishloq infratuzilmasi va yo‘llarning umumiy rivojlanmaganligi, shuningdek, ta’limning past darajasi) yengib o‘tishda davlat organlari va biznes vakillari o‘rtasida muloqotni tashkil etish zarur.

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi vaqt-vaqt bilan inklyuziv biznesda investitsiya imkoniyatlarini ilgari surish, rivojlanmagan bozorlarni aniqlash va inklyuziv biznesning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha treninglar o‘tkazib turishi tavsiya etiladi. Inklyuziv biznes bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun har yili o‘tkaziladigan mahsulotlar yarmarkalarini tashkil etish, ularda tadbirkorlar o‘zaro tajriba almashishlari, bir-biri bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilishi mumkin. Har yili “eng yaxshi inklyuziv biznes modellari tanlovini” o‘tkazish va natijalarni va namunaviy loyihalarni keng omma e’tiboriga havola etish, mavjud tanlovlardan doirasida “Yilning eng yaxshi inklyuziv biznes loyihasi” nominatsiyasini taqdim etish samarali maxanizmlardan deb qaraladi.

Davlatning tarkibiy islohotlari. Odatda, yalpi ichki mahsulot o‘sishi yuqori bo‘lgan davlatlar kambag‘allikni kamaytirishda ham katta yutuqlarga erishmoqda. Biroq, dunyo taraqqiyoti tarixida ko‘plab teskari misollarni topish mumkin. Buning sabablari turli xil iqtisodchilar tomonidan turli yo‘llar bilan izohlanadi. Masalan, ba’zi mamlakatlarda (Kolumbiya va Marokash) ushbu vaziyatning sababi iqtisodiy

o'sishga parallel ravishda o'sib borayotgan daromadlar tengsizligining ta'siri bo'lishi mumkin (Kolumbiyada faol iqtisodiy o'sish davrida Jini indeksi 51,3dan 58,3gacha ko'tarilgan). Boshqa davlatlar (Filippin) uchun davlat muassasalarining ish sifati pastligi va boshqa institutsional omillar ko'rsatilgan (masalan, Filippinda davlat muassasalarining sifati 1998 yildagi 3,3 dan 2006 yilda 2,5 gacha pasaygan). Binobarin, iqtisodchilar iqtisodiy o'sishning samaralari avtomatik ravishda aholining barcha qatlamlariga ta'sir qilishi cheklanganligi tufayli davlatning qayta taqsimlash rolini hisobga olishga undaydilar. Shunday qilib, davlat aralashuvi ish bilan ta'minlash, soliqqa tortishning progressiv turi, ijtimoiy xarajatlar va eng kam ish haqi siyosatiga yo'naltirilgan tarkibiy islohotlarni rag'batlantirish kabilarni o'z ichiga olishi lozim.

Shu asosda:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ayollarni ish bilan ta'minlash dasturini mukammalroq ko'rinishini qabul qilishi, xususan, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va bolalarni erta rivojlanish markazlarida bo'lishlarini rag'batlantirish, rasmiy ish kunida bandlikni yoki ish vaqtining moslashuvchan davomiyligini va taqsimlanishini ta'minlaydigan yangi ish o'rinalarini yaratish, ish va ayollarning shaxsiy hayotini muvofiqlashtirish kabi masalalarni inobatga olishi maqsadga muvofiq.

Sanoat siyosati. Rivojlanayotgan davlatlar sharoitida malakasiz ishchi kuchining haddan tashqari ko'pligi va moliyaviy va moddiy resurslarning yetishmasligi tendensiyasi ustunlik qiladi, bu asosan mehnat resurslarini talab qiladigan sohalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqligini bildiradi. Bunga qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va yengil sanoat, shuningdek, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish turlari – montaj, yig'ish, kompyuter ishlab chiqarish, orgtexnika, sanoat elektr jihozlarining ayrim turlari va elektrotexnika kabi sohalarni kiritish mumkin.

Tegishli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mehnat talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli dasturni qabul qilishi maqsadga muvofiq: masalan, to'qimachilik sanoatini va qo'shimcha qiymat ulushi yuqori bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish va eksport qilish, milliy brendni yaratish, ipak buyumlari, gilam, milliy hunarmandchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishga yaqindan yordam berishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish. Xizmat ko'rsatish sohasida, xususan aloqa va axborotlashtirish, maishiy xizmat, bank va biznes xizmatlarida (konsalting, audit, lizing, sug'urta va boshqalar) kichik biznesni rivojlantirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish, shu jumladan mahsulotlarni tayyorlash va saqlash, qishloq xo'jaligi texnikalariga xizmat ko'rsatish, chorva uchun ozuqani sotish xizmatlari, o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish xizmatlari, veterinariya xizmatlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Qishloq joylarda xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlardan biri bu xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning statistik ma'lumotlar bazasini (reestrlarini) takomillashtirish bo'lishi mumkin. Dunyoning ilg'or tajribalariga asoslangan

mahalliy kamta'minlangan oilalarni jalgan holda ekoturizmni rivojlantirish dasturi qabul qilish imkoniyati ham mavjud.

Qishloq xo'jaligiga oid siyosat. Qishloq xo'jaligi ekinlarini chuqr qayta ishlash va rivojlangan mamlakatlarning bozorlariga eksport qilishning ulkan salohiyati saqlanib qolmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligidagi hosildorlikning o'sishini, daromadlarining o'sishini va qishloq aholisining turmush sharoitining yaxshilanishini ta'minlaydi.

Shu asosda:

Qishloq xo'jaligi uchun zarur infratuzilmani yanada rivojlantirish: ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rghanish, ularning samaradorligini isbotlagan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va usullar bilan almashish tizimini yaratish. Masalan, Janubiy Koreyaning muvaffaqiyatli amalga oshirgan "Yangi qishloq uchun harakat" loyihasi allaqachon Afrika va Janubi-Sharqi Osiyoda amalga oshirilmoqda. Yetakchi korxonalar va hududlardan ichki texnologiyalarni jalgan qilish, mintaqada maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish mumkin.

Jahon tajribasini, xususan, Xitoy va Hindistonni tajribasini hisobga olgan holda, agrar islohotga e'tiborni kichik fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni yengillashtirishga yo'naltirish kerak. Birinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha kooperativlar ishini rivojlantirish va buning uchun zarur texnologiyalarni jalgan qilish jarayonini yengillashtirish kerak. Hukumat mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro sertifikatlash markazlarini tashkil qilishi va ularning xizmatlaridan foydalanishini osonligini ta'minlashi kerak, bu esa ishlab chiqarilgan meva va sabzavotlarning bozorini kengaytiradi, qayta ishlashni tashkil qiladi va kamta'minlangan qishloq aholisining daromadlarini oshiradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish. Axborot texnologiyalarini keng joriy qilish: ta'lim va tibbiy xizmatlarni mobil telefonlar orqali taqdim etish tizimini yaratish, smartfonlar uchun o'z-o'zini rivojlantirish uchun barcha kerakli darsliklar yoki dasturlar jamlangan ma'lumotlar, intellektual o'yinlar tizimini joriy etish.

Innovatsion potensialni rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirishda quyidagilarni inobatga olish:

- ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlarni ko'paytirish;
- yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish;
- nashr etilgan ilmiy nashrlar qatorini kengaytirish;
- ekspert-maslahat tuzilmalarini rivojlantirish;
- Aholi tomonidan zarur buyumlar va xizmatlarni topishda surʼat-xarajatlar va vaqt xarajatlarini kamaytirish;
 - nisbatan qimmat uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishga qodir bo'lmagan va vaqtincha foydalanilmayotgan mulk imkoniyatlarini oshirish maqsadida ijaraga berish xizmatlarini joriy etish;
 - narsalarni almashish va xizmatlarni taklif qilish uchun maxsus Internet-saytlar sinfini joylashtirish bo'yicha milliy dasturni ishlab chiqish.

Investitsiya siyosati. Migrantlarga ularning jamg'armalarini samarali investitsiya qilishga yordam berish uchun alohida dasturlar ishlab chiqish.

Mintaqaviy siyosat. Har bir mintaqada o‘ziga xos kambag‘allik profillari mavjud bo‘lib, uni o‘rganish uchun aniq choralar ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (kam ta’minlanganlik darajasi yuqori bo‘lgan mintaqasi) uchun chora-tadbirlar dasturini aynan kam daromadli ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish lozim. Bunda Qoraqalpog‘iston uchun xavf omillari hisoblangan mintaqaning past iqtisodiy rivojlanishi, 16 yoshgacha bo‘lgan aholining ulushi kattaligi, ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligi, daromadlarning beqarorligi kabi muammolardan kelib chiqib ish tutish choralarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Uy-joy qurilishi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi shaharlarda arzon uy-joy qurilishi bo‘yicha respublika dasturini qabul qilish va ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish lozim, **jumladan:**

- rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida ma’muriy xarajatlarni kamaytirish;
- uy-joy narxini pasaytirish;
- yer narxini pasaytirish;
- qurilish sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish;
- ipoteka kreditlash va jamoaviy kassalar imkoniyatlarini oshirish;
- foiz stavkalari va sotib olingan uy-joy qiymatiga dastlabki badalning ulushini kamaytirish;
- fuqarolar tomonidan jamg‘arma badallari bosqichida shakllantirilgan uy-joy uchun mablag‘larni maqsadli yig‘ish mexanizmini yaratish.

Uy-joy kommunal xo‘jaligini modernizatsiya qilish dasturini qabul qilish:

- ushbu xizmatlarga narxlarning doimiy oshib ketishining oldini olish;
- qishloq aholisining toza ichimlik suvi bilan ta’minlash;
- elektr energiyasi va gazdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ularni qish mavsumida uzlusiz yetkazib berishni ta’minlash.

Axborot siyosati. Qishloq aholisining xabardorligini oshirish uchun yangi harakatni yaratish: gigiena qoidalariga rioya qilish va antisanitar sharoitda o‘stirilgan mahsulotlardan foydalanmaslik va qayta ishlangan va mikrooziqaviy moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini (suv, bolalar uchun oziq-ovqat va boshqalar) sotib olish orqali davolanish uchun katta pulni tejash mumkinligini keng targ‘ib qilish. Masalan, Chilida sut kukuni mikroelementlar, xususan, temir bilan boyitilgan, bu kamqonlikni tarqalishini uch yil ichida 80 foizga kamaytirgan. Ixtisoslashgan treninglar uyushtirish orqali odamning daromadini oshirish yo‘llarini o‘rgatish, shu bilan birga ovqatlanishni yaxshilashga (mikroelementlar bilan mahsulotni boyitish) va biofortifikatsiya investitsiyalarni rag‘batlantirishga da’vat etish o‘z samarali natijasini berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган З-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 140-б..

2. Abdurahmonov Q.X., Qurbonov S.P. Inson taraqqiyoti. O'quv qo'llanma. – Т.: Noshir, 2020. – 280 b.
3. Ирматова А.Б. Инновацион иқтисодиётда аёллар меҳнатини ташкил этиш. Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022..
4. Долинина Т.Н. Институциональные модели управления оплатой труда: в 2 ч. / Т. Н. Долинина. – Минск : БГТУ, 2019.
5. Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 683 с.
6. Victoria Reyes. The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age by Valerie Francisco-Menchavez. American Journal of Sociology. 2020
7. Naoki Aizawa, Hanming Fang. Equilibrium Labor Market Search and Health Insurance Reform. Journal of Political Economy. 2020.
8. Саградов А.А. Экономическая демография. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2016. – 297 с.
9. www.mf.uz – О‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
10. www.lex.uz – О‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. www.mineconomu.uz – О‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.
12. www.stat.uz – О‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
13. <http://coombs.anu.edu.au/ResFacilities/Demographypage.html> - Avstraliya milliy universitetining demografiya sayti.
14. <http://demoscope.ru> - «Demoskop Weekle».
15. <http://dmo.econ.msu.ru/demografia> - Moskva Davlat universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti aholishunoslik muammolarini o‘rganish bo‘yicha markaz sayti.
16. <http://esa.un.org/popin/> - BMTning rasmiy demografik sayti
17. <http://www.demographia.ru> - “Demografik tadqiqotlar” internet-jurnalining sayti.

4-mavzu: Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash (2 soat)

- 4.1. Inson taraqqiyoti indeksi haqida**
- 4.2. Inson taraqqiyoti indeksi komponentlari**
- 4.3. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash**

4.1. Inson taraqqiyoti indeksi haqida.

“O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi” loyihasida mamlakat Inson kamoloti (taraqqiyoti) indeksi reytingini 105-o‘rindan (2018 yilgi hisobot bo‘yicha) 40-o‘ringa ko‘tarish prognoz qilinmoqda. BMT Taraqqiyot dasturining 2019 yil dekabr oyida e’lon qilingan hisobotida O‘zbekiston ushbu indeks reytingida 108-o‘rinni egalladi. Bu degani, yaqin 10 yilda respublika mazkur reytingda 108-o‘rindan 40-o‘ringa, ya’ni 68 pog‘onaga ko‘tarilishi kerak.

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) nimani anglatadi va nima uchun bu ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi?

Ushbu reytingda 40-o'ringa ko'tarilish uchun qanday natijalarga erishish va dunyoning qaysi davlatlari qatoridan o'rin olish lozim?

Oxirgi yillarda O'zbekiston mazkur reytingda necha pog'ona ko'tarildi, boshqa Markaziy Osiyo davlatlarichi?

Inson taraqqiyoti indeksi haqida. Uzoq vaqt davomida dunyoda iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi yakka hukmron bo'lib kelgan. Qisqacha aytganda, ushbu konsepsiyaning mohiyati nihoyatda sodda va tushunarli: iqtisodiyot va mehnat samaradorligining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan, yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi jon boshiga o'rtacha daromadi yuqori bo'lgan mamlakat farovon hisoblanadi. Bu konsepsiya sodda va tushunarli bo'lgani tufayli hamon odamlar tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ammo XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sishning o'zi asosiy maqsad emasligi ayon bo'lib qoldi. Jamiatning daromadlari faqat vosita xolos: ular kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga ham, qurollanishga ham, maorifni rivojlantirishga ham, shuningdek halq farovonligiga ta'sir ko'rsatmaydigan loyihalarni amalga oshirishga ham sarflanishi mumkin. Shu sabab, turli mamlakatlardagi turmush sifati har doim ham o'rtacha daromad darajasiga mos kelavermaydi. Bundan tashqari, mamlakat YaIMi notekis taqsimlanishi ham mumkin. Xullas, YaIM darajasi ham, o'sish sur'ati ham taraqqiyot va muvaffaqiyatning asosiy mezoni bo'la olmaydi. Buni anglash yangicha yondashuvni – Inson taraqqiyoti konsepsiyasini shakllantirish imkonini berdi.

Ushbu konsepsiyanı vujudga kelishiga hind iqtisodchisi, 1998 yilgi Nobel mukofoti laureati Amartya Kumar Sen va pokistonlik mashhur iqtisodchi Mahbub ul-Haq katta hissa qo'shishdi. Bir necha o'n yil davomida Inson taraqqiyoti konsepsiysi nafaqat nazariya, balki jamiyat rivojlanishining kompleks modeliga aylandi.

Inson taraqqiyot konsepsiyasiga ko'ra, jamiyat rivojlanishi markazida faqatgina oddiy iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki avvalo inson turishi kerak. Taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasining bosh mezoni – odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiiy, jamiyatda umum e'tirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini sifatliroq qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish demakdir.

Iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tahlil qilishda statistika ko'rsatkichlari xolis bo'lib, ularni qiyoslash mumkin. Ammo, "inson taraqqiyoti" muvafaqqiyatini qanday baholasa bo'ladi? Gap shundaki, turli jamiyatlar, millatlar va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatları turlichä bo'lsa-da, barcha joyda "tur mushning yuqoriqdarasi" deganda umuman qarashlar o'xshash bo'ladi. U salomatlik va uzoq umr ko'rish, moddiy farovonlik, ta'lim darajasi, mehnatdan ma'naviy qoniqish, xavfsizlik, madaniy xordiq kabi tushunchalarini qamrab oladi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasini dunyo miqyosida qo'llashning butun davri davomida muayyan mamlakatlari inson taraqqiyoti darajasini ifodalovchi va ularni boshqa davlatlardagi holat bilan taqqoslashga imkon beruvchi ko'rsatkichlar ishlab

chiqilgan. Asosiy ko'rsatkich sifatida "Inson taraqqiyoti indeksi" (Human Development Index – HDI) qabul qilingan. U yig'ma indeks bo'lib, mamlakat yutuqlarining o'rtacha darajasini uch yo'naliш: salomatlik va uzoq umr ko'rish (umr davomiyligi), ta'lism sifati va darajasi (ta'lism olish davomiyligi) hamda munosib va farovon hayot kechirish darajasi (aholi jon boshiga yalpi milliy daromad) bo'yicha baholanadi.

Bundan tashqari, muayyan mamlakatda inson taraqqiyoti darajasini o'lchashda va davlatlararo taqqoslashda "*Tengsizlikni hisobga olgan holda inson taraqqiyoti indeksi*" (Inequality-adjusted Human Development Index – IHDI), "*Gender rivojlanishi indeksi*" (Gender Development Index – GDI) hamda "*Gender tengsizligi indeksi*" (Gender Inequality Index – GII) kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

40-o'ringa ko'tarilish uchun qanday natijalarga erishish kerak?

BMT Taraqqiyot dasturining 2019 yil dekabr oyida taqdim etilgan hisobotiga ko'ra, "Inson taraqqiyoti indeksi" (Human Development Index) reytingida qatnashgan 189 mamlakat shartli ravishda, ularning rivojlanish darajasiga qarab 4 ta guruhga bo'lingan. Birinchi guruh mamlakatlari "Juda yuqori inson taraqqiyoti" (Very High Human Development) ko'rsatkichiga ega davlatlar bo'lib, 62 ta mamlakatni o'z ichiga qamrab olgan. Ya'ni, bu davlatlar mazkur reytingda 1 dan 62 gacha bo'lgan o'rinni egallahsgan.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi loyihasida prognoz qilinganidek, 2030 yilga qadar mazkur reytingda 40-o'rinni egallah ko'zda tutilgan. Bu degani, inson taraqqiyotining juda yuqori ko'rsatkichiga ega davlatlar qatoridan o'rin olish taxmin qilinmoqda. Xo'sh, buning uchun qanday natijalarga erishish va qaysi mamlakatlar qatoridan o'rin olish kerak bo'ladi? Inson taraqqiyot indeksi yig'ma ko'rsatkich bo'lib, o'zida odamlarni yashash darajasining uchta tarkibiy qismini (umr davomiyligi, ta'lism sifati va farovonlik darajasi) o'z ichiga qamrab olgani sababli, aynan qaysi ko'rsatkich bo'yicha qanday natijaga erishish kerakligini bashorat qilish qiyin. Ammo, mazkur reytingda 35 dan 45 o'ringacha joy olgan mamlakatlar erishgan natijalarga qarab buni taxmin qilish mumkin.

4.2. Inson taraqqiyoti indeksi komponentlari

Uzoq yillar davomida iqtisodiy o'sishga erishish inson va butun jamiyatni rivojlantirishga olib keladi, deb hisoblangan. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqarish daromadlarni ko'paytiradi, yuqori daromad esa, o'z navbatida, iqtisodiy farovonlikni oshiradi, degan fikr yotardi. Shuning uchun iqtisodiy o'sish faqat rivojlanishni ta'minlash vositasigagina emas, balki rivojlanish maqsadiga aylandi. Ayrim mutaxassislargina iqtisodiy o'sishga faqat rivojlanish vositasi deb qarar edilar. 1955 yilda Nobel mukofotining laureati Artur Lyuis rivojlanishning maqsadi "inson tanlovini kengaytirish" degan xulosaga kelgan. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning sinonimi emasligini anglash jahonda iqtisodiy-siyosiy beqarorlik va aholining kambag'allishi ko'payishi bilan chuqurroq angvana boshlandi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning amaliyoti ishlab chiqarish rivojlanib borayotgan sharoitlarda ham odamlarning turmushi og'irlashishi mumkinligidan dalolat berardi. Ushbu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramasdan

tengsizlik, aholining ish bilan to‘liq band bo‘lmasligi va ommaviy qashshoqlik ko‘zga tashlanardi. Holbuki, boshqa mamlakatlar milliy daromadlari miqdori nisbatan yuqori emasligiga qaramasdan, turmush darajasini oshirishda qoniqarli natijalarga erishardilar. Iqtisodiy o‘sish o‘z-o‘zidan resurslaradolatli taqsimlanishini ta’minlanmasligi tobora oydinlashardi. Bundayadolat taqsimlashga fuqarolar tengligini ta’minlayotgan, shu jumladan ta’lim va sog‘liqni saqlash soxasida maqsadli dasturlarni amalga oshirayotgan davlatlarning hukumatlari muvaffaq bo‘layotgan edi. Iqtisodiy jihatdan boy bo‘lgan, daromad darajasi yuqori mamlakatlarda esa jinoyatchilikning o‘sishi, atrof muxitning ifloslanishi, turli kasalliklarning tarqalishi, aholi ijtimoiy holatning yomonlashishi kabi salbiy hodisalar kuzatilardi. Yuqorida bayon etilganlar hisobga olingan holda XX asrning 70- yillarida ishlab chiqilgan iqtisodiy konsepsiyalarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi, daromad va ne’matlarni taqsimlash muammolariga e’tibor kuchaydi. Buning natijasida “o‘sish xisobiga ayta ta simlash” nomini olgan konsepsiya paydo bo‘ldi. Ushbu konsepsiyaning maqsadi odamlar, birinchi navbatda aholining nochor qatlamlari turmush sharoitlarini mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish, ya’ni bu bilan yalpi ichki mahsulot, ish xaqi va aholi daromadlarini oshirish, davlat tomonidan ijtimoiy sohani keng qo’llab-quvvatlashni ta’minlashga qaratildi. O’tgan asr 70-yillarning o‘rtalarida “assosiy ehtiyojlar konsepsiyasi” ham ilgar surildi. Unda assosiy e’tibor davlatning barcha fuqarolariga tirikchilik uchun eng oddiy sharoitlarni: ovqatlanish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, ta’limni taqdim etish uchun mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratildi. Biroq “o‘sish xisobiga qayta taqsimlash” konsepsiyasi ham, “assosiy ehtiyojlar konsepsiyasi” ham keng ommalashmadidi. Bu rivojlanishni iqtisodiy va ijtimoiy qismlariga sun’iy bo‘lish oqibati edi. Assosiy extiyojlar deganda inson turmushining sifat ko‘rsatkichlari emas, balki tovarlar va xizmatlar taqdim etish anglashinvlardi. Shu bilan bir qatorda assosiy e’tibor davlat imkoniyatlariga qaratilgan, aholi esa rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha faoliyatning faol ishtirokchilari emas, balki tovar va xizmatlarni oluvchilar sifatida ko‘rilardi. Bundan tashqari ana shunday choralar iqtisodiy faollikni pasaytirar, ayni paytda davlatning ijtimoiy sohaga harajatlari haddan tashqari ortib ketayotgan edi. XX asrning 80-yillari boshlariga kelib iqtisodiy o‘sish qadriyat deb e’tirof etila olmasligi to‘g‘risidagi xulosaga kelindi. Ushbu davrda ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari pasaydi va tarkibiy inqiroz yuz berdi. Shuning uchun rivojlanish siyosatida davlat qarzi va xarajatlarini qisqartirish, iqtisodiy o‘sish sur’atlari pasayishiga barham berish kabi sifat jihatdan yangi ustuvorliklar birinchi o‘ringa ko‘tarildi. “Tarkibiy qayta qurish” va iqtisodiyotning liberallashtirilishi avvalroq ilgari surilgan inson kapitali nazariyasiga e’tiborni kuchaytirdi. Yuqorida qayd qilinganidek, ushbu nazariyani asosiga ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgalikka investitsiyalar kiritishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan, insonga ishlab chiqarishning eng muhim omili sifatida qaralardi.

Ana shunday siyosatga javoban YuNISEF1 “Insonni ayta urish” hujjatini e’lon qildi. Uning mualliflari – Andrey Jovanni Kornea, Frencis Styuart, Richard Jolli tarkibiy iqtisodiy o‘zgartirishlarni inkor etmagan holda Xalqaro valyuta fondi va

Jahon bankini qashshoqlik muammolari va insonning turmush sharoitlarini yaxshilashga ko‘proq e’tibor berishga da’vat qildi. Bunday yondashuvning asosiy prinsipi ijtimoiy himoya choralar tarkibiy qayta qurish strategiyasiga qo‘sishimcha vosita sifatida qaralmasligi zarurligiga qaratigan edi. Shu bilan birga inson ehtiyojlariga yo‘naltirilgan, uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallab tuzilgan yangi kompleks rivojlanish mexanizmini ishlab chiqish taklif etildi. 1987 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanishni rejalashtirish bo‘yicha qo‘mitasi o‘zining 1988 yildagi ma’ruzasida tarkibiy qayta qurishning insonga chiqimlarini qarab chiqish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ana shu qaror Mahbub ul-Haq, shuningdek K.Griffin va J.Nayt raxbarligida tadqiqotlar o‘tkazishi uchun rag‘bat bo‘ldi. Bu tadqiqotlar natijalari “Inson rivojlanishining salohiyati: rivojlanish strategiyasining esdan chi arilgan mezonzlari” ma’ruzasi loyihasi sifatida e’lon qilindi.

Keyinchalik K.Griffin va J.Nayt o‘z tadqiqotlarining natijalarini 1989 yilda “Rivojlanishni rejalashtirish bo‘yicha jurnal”ning maxsus sonida e’lon qildilar. Ushbu ilmiy ish 1990 yilda alohida kitob sifatida chop etildi. Iqtisodiyot bo‘yicha 1998 yilgi Nobel mukofotining laureati Amartiya Sen ning nazariy ishlanmalari inson salohiyatini rivojlantirish muammosiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. U tomonidan 1989 yilda “Rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish sifatida” asari e’lon qilindi. Bu asarda “imkoniyat nuqtai nazaridan” yondashish deb nomlangan usuldan qo‘llanilgan edi.

A.Sen rivojlanish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi nuqtai nazaridan emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida tahlil etdi. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, jamiyatdagi turmush darajasini daromadlarning o‘rtacha darajasiga qarab emas, balki odamlarning o‘zlarini munosib deb hisoblagan hayot kechirishlari uchun mavjud imkoniyatlari bo‘yicha baholash lozim.

Hindistonlik iqtisodchi ijtimoiy rivojlanishning maqsadi ishlab chiqarishni cheksiz ko‘paytirish emas, balki odamlarning ko‘proq ish bajarish, bilimlarni egallash, uzoq umr ko‘rish, kasallikkardan holi bo‘lish va hokazolar uchun imkoniyatlar yaratishda deb hisobladi: “Baholash tizimining eng muhim vazifalaridan biri – inson qadriyatlarini xisobga olishdir. 1980–yillarda va undan keyin “insonni rivojlantirish” vazifasini mazkur muammoni ongli ravishda qarab chiqish hamda hayotimizda eng qatta ahamiyatga ega bo‘lgan erkinliklar va imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e’tibor berish zarur. Vaziyat taqozosi bilan odamlar imkoniyatlari chegaralab qo‘yilgan hayotiy doiralarni kengaytirish hozirgi davrda insonni rivojlatirishning asosiy vazifasi xisoblanadi”.

A.Sen konsepsiyasida rivojlanishga markazida inson bo‘lgan jarayon sifatida qaraladi. Keyinchalik bu va boshqa g‘oyalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rivojlanish dasturining ekspertlar guruhlari tomonidan birlashtirilib, insonni rivojlantirishga konseptual yondashuv asosini tashkil etdi. Mazkur yondashuv 1990 yilgi Insonni rivojlantirish to‘g‘risidagi global ma’ruzada o‘z ifodasini topdi. BMT Rivojlanish dasturining ta’rificha: “Insonni rivojlantirish – odamlarni kengroq tanlash imkoniyati bilan ta’minlash jarayonidir. Bunday tanlov cheksiz bo‘lishi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi prinsipial axamiyatga egadir. Biroq rivojlanishning

barcha darajalarida uzoq va sog‘lom xayot kechirish, bilimlarni egallash va munosib turmush kechirish uchun zarur bo‘lgan resurslardan foydalanish imkoniyatlari insonni rivojlantirishning asosiy moxiyatidir. Agar insonda bunday asosiy tanlov bo‘lmasa, u boshqa imkoniyatlardan ham foydalana olmaydi”.

Mazkur konsepsiya insonni rivojlantirishga ikki tomonlama yondashuvni ko‘zda tutadi. Bu, bir tomondan, sog‘liqni mustahkamlash, bilimlarni egallash, kasb ko‘nikmalarini takomillashtirish orqali inson imkoniyatlarini kengaytirish bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, odamlar tomonidan egallangan qobiliyatlarini ishlab chiqarish, madaniy, siyosiy faoliyati va dam olish maqsadlari uchun ishlatishdir. Boshqacha qilib aytganda, mazkur konsepsiya insonni rivojlantirishga faqat ishlab chiqarish faoliyati uchun resurslarni shakllantirish va moddiy boyliklarni ko‘paytirishga intilishning o‘zinigina qamrab olmaydi. Insonni rivojlantirish konsepsiyasining asosiy usullari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida e’lon qilingan edi. Mazkur deklaratsiyada XXI asrda xalqaro munosabatlar uchun qator asosiy qadriyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan. Mazkur qadriyatlarga quyidagilar taalluqlidir: Erkinlik. Erkaklar va ayollar ochlikdan va zo‘ravonlik qo‘rquvi, zulm va adolatliksizdan holi bo‘lgan, inson uchun munosib sharoitlarda yashash va bolalarini tarbiyalash huquqiga egadirlar. Xalqning keng ishtiroki va irodasiga asoslangan boshqaruvning demokratik shakli bu huquqlarning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Tenglik. Birorta ham odam, birorta ham mamlakat rivojlanish ne’matlaridan foydalanish imkoniyatlaridan mahrum qilinmasligi kerak. Erkaklar va ayollar huquqlari va imkoniyatlarining tengligi kafotlanishi zarur.

Birdamlik. Global muammolar tenglik va ijtimoiy adolatning asosiy prinsiplariga muvofiq, chiqimlar va mas’uliyatni adolatli taqsimlash asosida hal etilishi kerak. Azob chekayotganlar yoki eng noqulay sharoitga tushib qolganlar eng gulay vaziyatda bo‘lganlar tomonidan yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Sabr-toqatlilik. Dinlar, madaniyatlar va tillar xilma-xilligiga qaramasdan odamlar bir birlarini hurmat qilishlari kerak. Jamiyatlar doirasida va jamiyatlar o‘rtasidagi tafovut qo‘rqtishga ham, ta’qib qilishga ham asos bo‘lmasligi zarur, balki bu turfalikka inoniyatning eng qimmatli boyligi sifatida yondashilishi zarur. Jaxon madaniyati hamda barcha sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot faol rag‘batlantirib borilishi kerak.

Tabiatga hurmat. Barqaror rivojlanish qoidalariga muvofiq, barcha tirik mavjudot va tabiiy resurslarni muxofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish negiziga ehtiyojkorlik qo‘yilishi lozim. Faqat shu yo‘l bilangina bizga tabiat tomonidan in’om etilgan ulkan boyliklarni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish mumkin. Hozirgi ishlab chiqarishning va iste’molning beqaror modellari kelajakda bizning farovonligimiz va avlodlarimizning farovonligi manfaatlarida o‘zgartirilishi kerak. Umumiy majburiyat.

Global iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni boshqarish, shuningdek xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha mas’uliyat jaxon xalqlari o‘rtasida taqimlanishi hamda ko‘p tomonlik asosida amalga oshirilishi zarur.

Mazkur ishda jaxondagi eng universal va eng vakolatli tashkilot xisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy rol o'ynashi lozim.

Birdamlik. Global muammolar tenglik va ijtimoiy adolatning asosiy prinsiplariga muvofiq, chiqimlar va mas'uliyatni adolatli taqsimlash asosida hal etilishi kerak. Azob chekayotganlar yoki eng noqulay sharoitga tushib qolganlar eng qulay vaziyatda bo'lganlar tomonidan yordam olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Sabr-to atlilik. Dinlar, madaniyatlar va tillar xilma-xilligiga qaramasdan odamlar bir birlarini hurmat qilishlari kerak. Jamiyatlar doirasida va jamiyatlar o'rtasidagi tafovut qo'rqtishga ham, ta'qib qilishga ham asos bo'lmasligi zarur, balki bu turfalikka inoniyatning eng qimmatli boyligi sifatida yondashilishi zarur. Jaxon madaniyati hamda barcha sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot faol rag'batlantirib borilishi kerak.

Tabiatga hurmat. Barqaror rivojlanish qoidalariga muvofiq, barcha tirik mavjudot va tabiiy resurslarni muxofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish negiziga ehtiyyotkorlik qo'yilishi lozim. Faqat shu yo'l bilangina bizga tabiat tomonidan in'om etilgan ulkan boyliklarni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish mumkin. Hozirgi ishlab chiqarishning va iste'molning beqaror modellari kelajakda bizning farovonligimiz va avlodlarimizning farovonligi manfaatlarida o'zgartirilishi kerak. Umumiy majburiyat. Global iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni boshqarish, shuningdek xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha mas'uliyat jaxon xalqlari o'rtasida taqimlanishi hamda ko'p tomonlik asosida amalga oshirilishi zarur. Mazkur ishda jaxondagi eng universal va eng vakolatli tashkilot xisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy rol o'ynashi lozim.

U turli mamlakatlar va mintaqalar turmush darajasi o'rtasidagi umumiy farqlarni aniqlashda standart va vosita vazifasini o'taydi. Mazkur indeks BMTning Rivojlanish dasturi doirasida inson salohiyatini rivojlantirish to'g'risidagi hisobotlarda e'lon qilinadi.

4.3. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash

Taqqoslashga mezonlarning eng kam miqdorlari ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun indekslarni hisoblab chiqishda tirikchilik ko'rishning eng kam miqdori yoki "tabiiy 0" kabi ko'rsatkichlardan foydalilanadi. Quyidagi eng kam miqdorlar belgilangan:

- tug'ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi - 20 yil (uzoq muddatli tarixiy ma'lumotlarga asoslangan);
 - ta'lim sohasidagi ikkala ko'rsatkich uchun – 0 yil (ta'limning eng kam darajasi to'g'risidagi tasavvur jamiyat amalda rasmiy ta'limsiz ham amal etishi mumkinligiga asoslangan);
 - aholi jon boshiga yalpi milliy daromad – 163 AQSh dollari (bu birorta mamlakat, masalan Zimbaveda 2008 yilda kuniga 45 sentga teng bo'lgan eng kichik miqdordir. Mazkur miqdor Jaxon banki tomonidan o'rnatilgan, kuniga 1,25 AQSh dollarini tashkil etadigan kambag'allik chizig'i darajasidan biroz ortiqdir).

Eng kichik va eng yuqori miqdorlar aniqlangandan so‘ng kichik indekslar quyidagicha aniqlanadi:

O‘lhash indeksi = amaldagi mi dor – eng kam mi dor : eng ko‘p mi dor – eng kichik mi dor (1)

Ta’lim soaxsi uchun mazkur 1-tenglama xar ikki tarkibiy qismga nisbatan qo‘llaniladi. Buning natijasida ularning o‘rtacha geometrik miqdori topiladi, shundan so‘ng 1-tenglama ikkinchi mirotaba ishlatiladi. Buni 1–tenglamasini ikki tarkibiy qismi o‘rtacha geometrik miqdoriga tenglashtirish mumkin. Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi uch o‘lchov indekslari o‘rtacha geometrik miqdori jamlanmasidir:

$$(I_{Turmush} \frac{1}{3} + I_{Ta'lim} \frac{1}{3} + I_{Daromad} \frac{1}{3}) (2)$$

Mazkur 2-formula ISRI barcha ko‘rsatkichlarining to‘liq bo‘lmagan o‘zaro bir-birini almashtirishini nazarda tutadi. Shu tariqa u chiziqli jamlanish formulasiga nisbatan eng jiddiy e’tirozlarni hisobga oladi. Ma’lumki, chiziqli jamlanish formulasi ko‘rsatkichlarning bir-birini to‘la o‘rnini bosishini nazarda tutadi. Ayrim o‘zaro bir-birining o‘rnini bosish har qanday indeksni aniqlash uchun muqarrar ravishda xos bo‘lib, uning tarkibiy qismlari miqdori ortishi bilan ko‘payib boradi. ISRI da yangi indikatorlardan va yangi funksiyaviy shakllardan foydalanilgan xolda uslubiyotning takomilashtirilishi jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. O‘rtacha geometrik ko‘rsatkichlarni qo‘llash indekslarning quyiroy miqdorlarini keltirib chiqaradi. Bunda eng katta o‘zgarishlar rivojlanishi bir xil darajada bo‘lmagan mamlakatlarda kuzatildi.

2010 yilgi Insonni rivojlantirishi to‘g‘risidagi global ma’ruzada Inson salohiyatini rivojlantirish indeksiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi. Avvalgilarida bo‘lgani kabi yigirmanchi global ma’ruzada ISRI insonni rivojlantirishning uch asosiy mezoni – salomatlik, bilim va daromadlar bo‘yicha erishilgan natijalarni o‘lchaydigan kompozit indeks sifatida saqlanib qolgan.

ISRIning avvalgi formulalariga muvofiq “salomatlik” mezonini o‘lhash uchun tug‘ilgan paytda kutilayotgan umr davomiylidan foydalanilgan. Ta’lim yoki bilim darajasini aniqlash uchun katta yoshdagi aholi salomatligi ko‘rsatkichlari hamda maktab ta’limi (boshlang‘ich maktabdan boshlab oliy o‘quv yurtlarigacha) bilan qamrab olish ko‘rsatkichlari ishlatilgan. Daromadlar yoki turmush darjasini aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichi xarid qobiliyati pariteti (AQSh dollari hisobida) hisobga olingan holda aniqlangan. “Salomatlik” mezoni ilgaridek tug‘ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi bilan o‘lchangan. Lekin bunda kutilayotgan umr davomiyligining eng kam miqdori 25 yoshdan 20 yoshga pasaytirilgan. Tug‘ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi eng kam miqdorining o‘zgarishi Madisson va Riley1 asarlariga tayangan holda uzoq muddatli tarixiy ma’lumotlarga asoslangan. Bu ma’lumotlarda 20 yosh eng kam miqdor deb ko‘rsatilgan. Agar jamiyatda yoki jamiyatning biror qatlamida tug‘ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi odatdagি reproduktiv yoshdan past bo‘lsa, ushbu jamiyat qirilishga yuz tutadi. Bundan pastroq ko‘rsatkichlar Ruandada ro‘y bergen genotsid kabi qator inqirozli sharoitlarda ham uchragan, biroq ular barqaror bo‘lmagan istisno holdagi misollardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 140-б..
2. Abdurahmonov Q.X., Qurbonov S.P. Inson taraqqiyoti. O’quv qo’llanma. – Т.: Noshir, 2020. – 280 b.
3. Ирматова А.Б. Инновацион иқтисодиётда аёллар меҳнатини ташкил этиш. Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022..
4. Долинина Т.Н. Институциональные модели управления оплатой труда: в 2 ч. / Т. Н. Долинина. – Минск : БГТУ, 2019.
5. Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 683 с.
6. Victoria Reyes. The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age by Valerie Francisco-Menchavez. American Journal of Sociology. 2020
7. Naoki Aizawa, Hanming Fang. Equilibrium Labor Market Search and Health Insurance Reform. Journal of Political Economy. 2020.
8. Саградов А.А. Экономическая демография. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2016. – 297 с.
9. www.mf.uz – О‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
10. www.lex.uz – О‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
11. www.mineconomu.uz – О‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.
12. www.stat.uz – О‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
13. <http://coombs.any.edu.au/ResFacilities/Demographypage.html> - Avstraliya milliy universitetining demografiya sayti.
14. <http://demoscope.ru> - «Demoskop Weekle».
15. <http://dmo.econ.msu.ru/demografia> - Moskva Davlat universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti aholishunoslik muammolarini o‘rganish bo‘yicha markaz sayti.
16. <http://esa.un.org/popin/> - BMTning rasmiy demografik sayti
17. <http://www.demographia.ru> - “Demografik tadqiqotlar” internet-jurnalining sayti.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg‘ulotlar respublikamizdagi ilg‘or korxona va tashkilotlarda o‘tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1 - amaliy mashg‘ulot:

Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi.

Dars shakli bahs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasini muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. Inson va iqtisodiyotning rivojlanishing uzviy bog‘likligi.
2. Inson ishlab chiqarish faoliyatining asosiy maqsadi.
3. Inson taraqqiyoti konsepsiyaning yuzaga kelishi va shakllanishi.

❖ Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari: inson taraqqiyoti, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson taraqqiyoti konsepsiya, inson taraqqiyoti indeksi, demografik rivojlanish, gender tengsizligi, ta’lim, ijtimoiy muhofaza

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган З-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 140-б..
2. Abdurahmonov Q.X., Qurbonov S.P. Inson taraqqiyoti. О‘кув qo‘llanma. – Т.: Noshir, 2020. – 280 b.
3. Ирматова А.Б. Инновацион иқтисодиётда аёллар меҳнатини ташкил этиш. Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022..
4. Долинина Т.Н. Институциональные модели управления оплатой труда: в 2 ч. / Т. Н. Долинина. – Минск : БГТУ, 2019.
5. Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 683 с.

6. Victoria Reyes. The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age by Valerie Francisco-Menchavez. American Journal of Sociology. 2020
7. Naoki Aizawa, Hanming Fang. Equilibrium Labor Market Search and Health Insurance Reform. Journal of Political Economy. 2020.
8. Саградов А.А. Экономическая демография. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2016. – 297 с.
9. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
10. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
11. www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.
12. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
13. <http://coombs.anu.edu.au/ResFacilities/Demographypage.html> - Avstraliya milliy universitetining demografiya sayti.
14. <http://demoscope.ru> - «Demoskop Weekle».
15. <http://dmo.econ.msu.ru/demografia> - Moskva Davlat universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti aholishunoslik muammolarini o‘rganish bo‘yicha markaz sayti.
16. <http://esa.un.org/popin/> - BMTning rasmiy demografik sayti
17. <http://www.demographia.ru> - “Demografik tadqiqotlar” internet-jurnalining sayti.

2 - amaliy mashg‘ulot:
Inson taraqqiyoti masalalari tarmog‘ida ta’limning tizimini isloh etish istiqbollari.

Dars shakli bahs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda Inson taraqqiyoti masalalari tarmog‘ida ta’limning o‘zbek milliy modelini shakllantirishni muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zbek modeli mazmuni va mohiyati.
2. O‘zbekistonda demografik rivojlanish tendensiyalari.
3. Milliy ta’lim siyosatining huquqiy asoslari.
4. Inson taraqqiyoti masalalari tarmog‘ida ta’limning o‘zbek milliy modelini shakllantirish.

❖ Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari: inson taraqqiyoti, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson taraqqiyoti konsepsiyasi, inson taraqqiyoti indeksi, demografik rivojlanish, gender tengsizligi, ta’lim, ijtimoiy muhofaza

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган З-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 140-б..
2. Abdurahmonov Q.X., Qurbonov S.P. Inson taraqqiyoti. O’quv qo’llanma. – -Т.: Noshir, 2020. – 280 b.
3. Ирматова А.Б. Инновацион иқтисодиётда аёллар меҳнатини ташкил этиш. Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022..
4. Долинина Т.Н. Институциональные модели управления оплатой труда: в 2 ч. / Т. Н. Долинина. – Минск : БГТУ, 2019.
5. Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 683 с.
6. Victoria Reyes. The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age by Valerie Francisco-Menchavez. American Journal of Sociology. 2020
7. Naoki Aizawa, Hanming Fang. Equilibrium Labor Market Search and Health Insurance Reform. Journal of Political Economy. 2020.
8. Саградов А.А. Экономическая демография. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2016. – 297 с.
9. www.mf.uz – О‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
10. www.lex.uz – О‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
11. www.mineconomu.uz – О‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.
12. www.stat.uz – О‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
13. <http://coombs.anu.edu.au/ResFacilities/Demographypage.html> - Avstraliya milliy universitetining demografiya sayti.
14. <http://demoscope.ru> - «Demoskop Weekle».
15. <http://dmo.econ.msu.ru/demografija> - Moskva Davlat universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti aholishunoslik muammolarini o‘rganish bo‘yicha markaz sayti.
16. <http://esa.un.org/popin/> - BMTning rasmiy demografik sayti
17. <http://www.demographia.ru> - “Demografik tadqiqotlar” internet-jurnalining sayti.

V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR

“Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti” modulidan bitiruv ishlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jamiyat va inson faoliyatida mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni.
2. Inson resurslari mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining asosi.
3. Inson resurslarining shakllanish bosqichlari.
4. O‘zbekistonda demografik jarayonlarning insong resurslarining shakllanishiga ta’siri.
5. Inson resurslarining hududiy taqsimlanishi.
6. Inson resurslarining hayot sifati ko‘rsatkichlari.
7. Inson resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari.
8. Milliy iqtisodiyotda inson resurslari faoliyatining tuzilishi.
9. Korxona va tashkilotlarda kadrlarga oid siyosat.
10. Inson resurslarining tarkibi va uni korxona miqiyosida tahlil etish.
11. Inson kapitali - jamiyat rivojining negizi.
12. O‘zbekistonda malakali kadrlar tayyorlash siyosati.
13. Inson resurslaridan foydalanishning chet el tajribalari.

VI. KEYSALAR BANKI

Test savollari

1. Aholining turmush darajasi tushunchasi nimani ifodalaydi?

- a) aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'mol darajasini, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuini;
- b) jamiyatda yashovchi insonlar ehtiyojlarining rivojlanish va o'sib borish qonuniyatlarini;
- c) aholining daromadlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni;
- d) aholining farovonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni.

2. _____ – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

- a) turmush sifati;
- b) turmush darajasi;
- c) turmush tarzi;
- d) turmush qiymati.

3. BMT tomonidan ishlab chiqilgan aholining turmush sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi nechta guruhdan iborat?

- a) 8;
- b) 12;
- c) 6;
- d) 18.

4. Aholi turmush darajasining ma'naviy ehtiyojlarni qondirilishi bo'yicha ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a) ishlab chiqarishda ish vaqt yo'qotilishi, real pul daromadlari, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, shikastlanish darajasi;
- b) sport-sog'lomlashtirish, madaniy-istirohat maskanlari, pensiyalar, nafaqalar, o'rtacha va eng ish haqi miqdorlari;
- c) ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, atrof-muhit, jinoyatchilikning ahvoli, aholining pul daromadlari hamda harajatlari;
- d) aholining savodxonligi, nashr etilayotgan adabiyotlar, davriy nashrlar hajmi, fuqarolarning televizor, axborot vositalari va kompyuterlar bilan ta'minlanganligi.

5. Aholi turmush darajasining ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a) ishlab chiqarishda ish vaqt yo'qotilishi, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, shikastlanish, sport-sog'lomlashtirish, madaniy-istirohat maskanlari;
- b) daromad, pensiyalar, nafaqalar, o'rtacha va eng ish haqi miqdorlari, maktab yoshidagi bolalarning maktablar bilan ta'minlanganligi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari, ularda tahsil olayotganlar soni va qabul miqdori;
- c) ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, atrof-muhit, jinoyatchilikning ahvoli, aholining pul daromadlari hamda harajatlari, nashr etilayotgan adabiyotlar, davriy nashrlar hajmi;
- d) aholining savodxonligi, ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, fuqarolarning televizor, axborot vositalari va kompyuterlar bilan ta'minlanganligi.

6. Rivojlangan mamlakatlarda qaysi omil aholi turmush darajasini hosil qiluvchi va unga jiddiy ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi?

- a) ishlab chiqarish;
- b) istemol;
- c) qo'shimcha qiymat;
- d) naflilik.

7. Jini indeksi nimani ifodalaydi?

- a) daromadlarning farqlanishini;
- b) inson taraqqiyotini;
- c) turmush sifatining o'sishini;

d) o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini.

8. Har qanday ishlab chiqarishning bosh maqsadi nima hisoblanadi?

- a) sotish;
- b) iste’mol;
- c) foyda;
- d) daromad olish.

9. Aholi daromadlari o‘rtasidagi farqlanishni hisoblovchi ko‘rsatkichlar to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) Jini va inson taraqqiyoti indekslari;
- b) bandlik va ishsizlik koeffitsientlari;
- c) Jini, desil va kvintil koeffitsientlari;
- d) YaIM indeksi, kvintil koeffitsienti.

10. Mehnat hayoti sifatini belgilovchi omillar qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- a) mehnat sharoiti, mehnat turi va tavsifi, oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli;
- b) mehnatdan qoniqish, ish vaqtining moslashuvchanligi, mehnatga haq to‘lash;
- c) salomatlik holati, mehnatdan qoniqish, oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli;
- d) mehnat xarakteri, axborot, ma’naviy yetuklik, mehnat sharoiti.

11. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining turmush darajasi nima bilan baholanadi?

- a) aholi tomonidan olinadigan daromadlar miqdori, ovqatlanish darajasi, turar-joy sharoitlarining holati;
- b) aholi tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning puldagi qiymati;
- c) mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar;
- d) muayyan davrda yaratilgan YaIM.

12. Turmush darajasi komponentlarini aks ettiruvchi “BMT konsepsiysi” ishlab chiqilgan yil to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- a) 1961;
- b) 1991;
- c) 1954;
- d) 1946;

13. BMT mutaxassislari tomonidan dunyo hamjamiyatidagi nechta mamlakat aholisi turmush sifatining har yilgi ko‘rsatkichlariga baho beriladi?

- a) 136;
- b) 219;
- c) 180;
- d) 196.

14. Turmush sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtiruvchi ilmiy soha nima deb ataladi?

- a) demometriya;
- b) kvalimetriya;
- c) psixometriya;
- d) geometriya.

15. _____ – bu aholi farovonligi, ne’matlar va xizmatlar iste’molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me’yorini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko‘rsatkichlar majmuidir.

- a) turmush darajasi;
- b) turmush sifati;
- c) turmush qiymati;
- d) turmush tarzi.

16. _____ – bu aholining hayot uchun zarur bo‘lgan moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy boyliklar, ya’ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va shart-sharoitlar bilan ta’milanganligidir.

- a) qashshoqlik;
- b) kambag‘allik;
- c) farovonlik;
- d) nochorlik.

17. Turmush darajasini tavsiflovchi umumiyo ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?

- a) milliy daromad, iste’mol jamg‘armasi, milliy boylik tarkibida iste’mol jamg‘armasining ulushi;
- b) ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish darajasi, mehnat sharoitlari, iste’mol darajasi;
- c) turar joy bilan ta’milanganlik, ijtimoiy ta’milot, daromad miqdori;
- d) ijtimoiy ta’milot, ish bilan bandlik, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta’milanish

18. Iste’mol budgetining qanday standartlari mavjud?

- a) miqdor va sifat;
- b) eng kam, oqilona va elitar;
- c) nisbiy va mutlaq;
- d) ta’milagan va ta’milanmagan.

19. Jahon amaliyotida iste’mol budgetining qanday usullari ishlab chiqilgan?

- a) me’yoriy, statistik, birlashtirilgan, sub’ektiv va zahiraviy;
- b) statistik, matematik va ekonometrik;
- c) son va sifat;
- d) ijtimoiy, iqtisodiy va demografik.

20. Insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlovchi milliy daromadning bir qismi – bu ?

- a) fiskal siyosat;
- b) pensiya jamg‘armasi;
- c) iste’mol jamg‘armasi;
- d) kasaba uyushmalari Federatsiyasi.

21. _____ – odamlarning uzoq va sog‘lom, munosib turmush kechirishlari, ma’lumotli bo‘lishlari uchun zarur vositalardan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishidir.

- a) turmush tarzi;
- b) hayot sifati;
- c) inson taraqqiyoti;
- d) aholi farovonligi.

22. Inson taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) daromad, ijtimoiy xizmat, jamg‘arma;
- b) real daromad, ish bilan bandlik, manzilli ijtimoiy himoya;
- c) umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyati;
- d) ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, san’at, ijtimoiy ta’milot.

23. Ma’naviy ne’matlar (qadriyatlar) ishlab chiqarish sohasi to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- b) ishlab chiqarish va iste’mol;
- c) fan va san’at;
- d) moliya va ijtimoiy ta’milot.

24. Ishchi kuchini takror hosil qilish uchun moddiy ne’matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati _____ deb ataladi.

- a) qashshoqlik;
- b) kambag‘allik;

- c) farovonlik;
- d) ta'minlanganlik.

25. "Qashshoqlik" tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

a) moddiy ne'matlardan biologik mezonlar asosida minimal darajada foydalanish imkoniyati;

b) ishchi kuchini takror hosil qilish uchun moddiy ne'matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati;

c) inson jismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror hosil qilishni ta'minlovchi ilmiy asoslangan oqilonaga iste'mol darajasi;

d) inson barkamol rivojlanishini ta'minlovchi ne'matlardan to'liq foydalanish imkoniyati.

26. Fanga birinchi marta "iqtisodiy odam" atamasini kiritgan olim nomi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) Adam Smit;
- b) Alfred Marshall;
- c) David Rikárdo;
- d) Jon Stuart Mill.

27. "Xalqlar boyligining mohiyati va sabablari xususidagi tadqiqotlar" asarining muallifi kim?

- a) Alfred Marshall;
- b) Jon Stuart Mill;
- c) Adam Smit;
- d) David Rikárdo.

28. Iqtisodiyotda daromad keltirishga qodir bo'lgan yoki odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar nima deb ataladi?

- a) tadbirkorlik;
- b) kapital;
- c) demping;
- d) investitsion kreditlar.

29. Daromadlar ko'payishi bilan aholi tomonidan ne'matlarni iste'mol qilish proporsional bo'limgan holda ortishiga asoslangan iqtisodiy qonunni fanga kiritgan iqtisodchi olim nomini aniqlangan.

- a) Alfred Marshall;
- b) Jon Stuart Mill;
- c) Adam Smit;
- d) Ernst Engel.

30. Pul daromadlarini infliyatsiyadan himoya qilish maqsadida qanday vositadan foydalaniladi?

- a) indeksatsiya;
- b) diversifikatsiya;
- c) demping;
- d) kauching.

31. Aholi daromadlari tabaqalanishining kvantil koeffitsienti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) aholining eng ta'minlangan 10,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 10,0 foizi o'rtaсидаги farqni ko'rsatadi;

b) aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o'rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushini ko'rsatadi;

c) aholining eng ta'minlangan 25,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 25,0 foizi o'rtaсидаги farqni ko'rsatadi;

d) kambag'allarning ta'minlanganlar soniga nisbatini ko'rsatadi.

32. Aholi daromadlari tabaqalanishining desil koeffitsienti to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- a) aholining eng ta’minlangan 10,0 foizi daromadlarining eng kam ta’minlangan 10,0 foizi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi;
- b) aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o‘rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushini ko‘rsatadi;
- c) aholining eng ta’minlangan 25,0 foizi daromadlarining eng kam ta’minlangan 25,0 foizi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi;
- d) kambag‘allarning ta’minlanganlar soniga nisbatini ko‘rsatadi.

33. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad oqilona iste’mol budgeti darajasidan yuqori bo‘lgan oilalar _____ deb ataladi.

- a) ta’minlangan oilalar;
- b) boy oilalar;
- c) kam ta’minlangan oilalar;
- d) nochor oilalar.

34. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori eng kam iste’mol budgeti bilana oqilona iste’mol budgeti o‘rtasidagi oilalar _____ deb ataladi.

- a) ta’minlangan oilalar;
- b) boy oilalar;
- c) kam ta’minlangan oilalar;
- d) nochor oilalar.

35. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad turmush kechirishning eng kam miqdoridan past darajada yoki unga teng bo‘lgan oilalar _____ deb ataladi.

- a) ta’minlangan oilalar;
- b) boy oilalar;
- c) kam ta’minlangan oilalar;
- d) kambag‘al oilalar.

36. Uzoq va sog‘lom turmush kechirish imkoniyatidan mahrumlikda necha yoshga yetmasdan vafot etgan aholining ulushi asos sifatida olinadi?

- a) 40 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog‘i;
- b) 35 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog‘i;
- c) 30 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog‘i;
- d) 25 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog‘i.

37. Aholining turmush darajasini tavsiflovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) aholining jins va yosh tarkibi;
- b) aholining real daromadlari, ish bilan bandlik;
- c) aholining kasb-malakaviy tarkibi;
- d) ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish darjasasi.

38. Qaysi javobda juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan boy mamlakatlar keltirilgan?

- a) Yaponiya va Shveysariya
- b) AQSh va Germaniya;
- c) Luksemburg va Finlyandiya;
- d) Rossiya va Buyuk Britaniya.

39. Milliy boylikning tarkibi to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) yer fondi va suv resurslari;
- b) milliy mulk va tabiiy resurslar;

- c) milliy multk va YaMM;
- d) YaMM va YaIM.

40. Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi milliy daromadning bir qismi deb ataladi.

- a) milliy daromad;
- b) iste'mol fondi;
- c) jamg'arma fondi;
- d) milliy boylik.

41. _____ bu fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir.

- a) milliy daromad;
- b) iste'mol fondi;
- c) jamg'arma fondi;
- d) milliy boylik.

42. Kapital tushumlarga xos bo'limgan xususiyatni aniqlang.

- a) kutilmagan;
- b) nomuntazam;
- c) muntazam;
- d) uy xo'jaligi uchun juda kam takrorlanadigan.

43. Ijtimoiy soha tarmoqlari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) sanoat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish;
- b) qurilish, qishloq xo'jaligi, san'at, moliya, sanoat, o'rmon xo'jaligi;
- c) transport, aloqa, ta'lim, turizm, san'at, madaniyat;
- d) ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, san'at, kommunal xo'jaligi.

44. Iste'mol budgetining zaruriy darajasi jamoatchilik fikri va ekspertlari so'rovi asosida belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) me'yoriy
- b) statistik
- c) sub'ektiv;
- d) zahiraviy.

45. Iste'mol budgetining oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning iste'mol me'yorlari bo'yicha, qolgan qismlar esa statistik yo'l bilan belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) me'yoriy;
- b) me'yoriy-statistik;
- c) sub'ektiv;
- d) zahiraviy.

46. Iste'mol budgetining alohida tovar va xizmatlar hamda ularning real qiymatlari asosida belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) me'yoriy;
- b) me'yoriy-statistik;
- c) sub'ektiv;
- d) zahiraviy.

47. Aholi umumiyl daromadining tarkibi qaysi javobda noto'g'ri keltirilgan?

- a) pul daromadlari;
- b) natura shaklidagi daromadlar;
- c) doimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlar;
- d) aholi farovonligi va hayot sifati.

48. Tushumlar "daromad" hisoblanishi uchun qanday mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak?

- a) kutilayotgan bo'lishi va muntazam ravishda kelib tushishi kerak;

- b) uy xo‘jaligining joriy iqtisodiy farovonlik darajasiga haqiqiy hissa qo‘shishi kerak;
- c) uy xo‘jaligi kapitalining kamayishi hisobiga kelib tushadigan tushum bo‘lmasligi kerak (masalan: uyni, aksiyalarni va shunga o‘xshashlarni sotish).
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

49. Lotoreyadagi yutuqlar, o‘yinlardan olingan sovrinlar, sug‘urta talablari bo‘yicha mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun to‘lovlar, olingan meroslar, pensiyaga chiqishda bir marta to‘lanadigan summalar, hayot sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta to‘lovleri va qarzni qaytarish evaziga olingan summalar aholining umumiy daromadiga qo‘shiladimi?

- a) ha;
- b) kapital tushumlarga taaluqli;
- c) bir martalik ijtimoiy to‘lovarga taaluqli;
- d) doimiyi ijtimoiy to‘lovarga taaluqli

50. Xalqaro statistika amaliyatiga muvofiq ravishda umumiy daromadlar qanday tarkibiy qismlarga bo‘linadi?

- a) birlamchi va transfertlardan olingan daromadlar;
- b) nominal va real daromadlar;
- c) pul va natura shaklidagi daromadlar;
- d) pul va natura shaklidagi daromadlar hamda bepul xizmatlar qiymati;

51. Quyidagilardan qaysi biri mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlarga kirmaydi?

- a) xodimlarga hisoblangan ish haqi;
- b) rag‘batlantirish hususiyatiga ega bo‘lgan barcha to‘lovlar;
- c) kompensatsiya to‘lovleri va ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash;
- d) ijtimoiy transfertlar.

52. O‘zbekiston Respublikasida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni hisoblash uchun Milliy hisoblar tizimining qaysi tushunchasi asos bo‘lib hisoblanadi?

- a) natural daromad;
- b) aralash daromad;
- c) real daromad;
- d) renta.

53. Aholi iste’mol xarajatlari uchun mumkin bo‘lgan eng katta miqdorni aniqlash imkonini beradigan daromad turini aniqlang.

- a) nominal daromad;
- b) aholi ixtiyoridagi daromad;
- c) real daromad;
- d) pullik daromad.

54. Ishlab chiqarishdan olingan daromadning qanday turlari farqlanadi?

- a) yollanma ishchilarining daromadi va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad;
- b) mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad;
- c) mol-mulkdan olingan daromad va yollanma ishchilarining daromadi;
- d) transfertlardan daromad va mehnat faoliyatidan olingan daromad.

55. Mehnat faoliyatidan olingan daromadning qanday turlari mavjud?

- a) yollanma ishchilarining daromadi va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad;
- b) mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad;
- c) mol-mulkdan olingan daromad va yollanma ishchilarining daromadi;
- d) transfertlardan daromad va mehnat faoliyatidan olingan daromad.

56. Mol-mulkdan olingan daromad turi noto‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) foizlar va renta;
- b) dividendlar;

- c) mualliflik haqi;
- d) tadbirkorlik.

57. Transfertlardan daromadning qanday turlari mavjud?

- a) ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlar;
- b) pensiya, nafaqa va stipendiya;
- c) moddiy yordam, mualliflik haqi, nafaqa;
- d) nafaqa, moddiy yordam, renta.

58. Quyidagi javoblarning qaysi birida ijtimoiy transfertlar turlari to‘g‘ri keltirilgan?

- a) ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlar;
- b) pensiya, nafaqa va stipendiya;
- c) moddiy yordam, mualliflik haqi, nafaqa;
- d) nafaqa, moddiy yordam, renta.

59. _____ – insonning ijtimoiy erkinligi, har tomonlama rivojlanish imkoniyati, o‘z iqtidori va turmush rejalarini amalga oshirish darajasini ifoda etuvchi ijtimoiy tizimlar va tuzilmalardagi mavqeining mujassam integral xarakteristikasidir.

- a) aholi daromadi;
- b) inson taraqqiyoti;
- c) turmush sifati;
- d) ish bilan bandlik.

60. _____ – bu xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tashkilot (korxona) doiralaridagi faoliyat orqali qondirish darajasidir.

- a) ijtimoiy hayot sifati;
- b) mehnat hayoti sifati;
- c) atrof-muhit sifati;
- d) shaxsiy hayot sifati.

61. _____ insoniyatning dunyo miqyosidagi rivojlanishining bugungi kundagi yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, oiladagi uyg‘un munosabatlар va shaxslarning o‘zarо hurmatiga, uy xo‘jaligini va bolalar tarbiyasini bирgalikda olib borishga, ishdan bo‘sh vaqtлarni o‘tkazish va o‘z shaxsini rivojlantirish uchun bo‘sh vaqtning mavjudligiga, qadriyatлarni va dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi.

- a) ijtimoiy hayot sifati;
- b) mehnat hayoti sifati;
- c) atrof-muhit sifati;
- d) shaxsiy hayot sifati.

62. Qaysi javobda shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar to‘g‘ri keltirilgan?

- a) bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanimayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati;
- b) uy xo‘jaligi a’zolari tomonidan ishlab chiqarilgan maishiy xizmatlar (ovqat tayyorlash, uyni tozalash, bolalarni parvarishlash va sh.o‘.);
- c) uy-joy egalari tomonidan foydalanimayotgan turar-joy xizmatlarining hisoblangan qiymati;
- d) korxona (tashkilot)dan olingan mehnatga doir daromadlari.

63. Quyidagi javoblardan qaysi biri noto‘g‘ri. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar hajmini hisoblash uy xo‘jaliklari kuzatuvi asosida, shuningdek, quyidagi choraklik statistik baholashlar orqali amalga oshiriladi:

- a) jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (qayta ishlangan), hamda bozorda sotilgan yoki shaxsiy iste’mol uchun sarflangan sanoat mahsulotlari hajmi;
- b) sotish hamda shaxsiy iste’mol maqsadlarida dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmi;

c) yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar (transport, savdo va shunga o‘xshash) hajmi;

d) jismoniy shaxslar tomonidan (ya’ni, pudratchi sifatida yuridik shaxslarni jalb qilmagan holda) yakka tartibda uy-joy va noturar-joy qurilishi hajmi.

64. _____ – bank hisob-raqamlaridan, kredit uyushmalari yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo‘yilgan omonotlardan, depozit sertifikatlari, davlat obligatsiyalari, zayomlar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hamda boshqa shaxslarga berilgan qarzdorlik majburiyatlari va kreditlar bo‘yicha olingan to‘lovlar.

- a) dividendlar;
- b) foizlar;
- c) renta;
- d) ish haqi.

65. Yaratilgan adabiy asarlar, ixtiolar va mualliflik huquqi berilgan (ya’ni, nafaqat muallifga (yaratuvchiga) to‘lanishi mumkin bo‘lgan, balki boshqa mulkdorlarga, masalan, merosxo‘rga ham to‘lanadigan) boshqa patentlangan materiallar uchun egasi tomonidan olingan mualliflik mukofotlari deb ataladi?

- a) dividendlar;
- b) foizlar;
- c) renta;
- d) mualliflik haqi.

66. “Renta” tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni aniqlang.

a) bank hisob-raqamlaridan, kredit uyushmalari yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo‘yilgan omonotlardan, depozit sertifikatlari, davlat obligatsiyalari, zayomlar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hamda boshqa shaxslarga berilgan qarzdorlik majburiyatlari va kreditlar bo‘yicha olingan to‘lovlar;

b) sarmoyador (jismoniy shaxs) ning korxonada ishlashi yoki ishlamasligidan qat’iy nazar, korxonaga sarmoya kiritishi natijasida olingan tushumlar.

c) yaatilgan adabiy asarlar, ixtiolar va mualliflik huquqi berilgan (ya’ni, nafaqat muallifga (yaratuvchiga) to‘lanishi mumkin bo‘lgan, balki boshqa mulkdorlarga, masalan, merosxo‘rga ham to‘lanadigan) boshqa patentlangan materiallar uchun egasi tomonidan olingan mualliflik mukofotlari.

d) jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ishlab chiqarilmagan aktivlarni (masalan, yer maydoni) foydalanishga berishidan olingan ijara to‘lovlar.

67. Yuridik shaxsning tadbirkor (xususiy korxonaning mulkiy egasi yoki fermer xo‘jaligining rahbari) ixtiyoriga (soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lagandan so‘ng) o‘tkazilgan foydasi qaysi daromad turiga kiradi?

- a) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad;
- b) mol-mulordan olingan daromadlar;
- c) ijtimoiy transferlar;
- d) aralash daromadlar.

68. _____ – bu uy xo‘jaliklariga tovar, xizmat yoki aktiv evaziga qoplanmasdan tovarlar, xizmatlar va aktivlarning kelib tushishidir.

- a) transferlar;
- b) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad;
- c) mol-mulordan olingan daromadlar;
- d) ish haqi.

69. _____ – qonunchilikda nazarda tutilgan, ya’ni ma’lum bir yoshga yetganligi, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganligi, shuningdek, qonunchilikka asosan ta’sis etilgan tizimlarga kirmaydigan (masalan, ish beruvchi tomonidan ta’sis etilgan) ijtimoiy ta’milot bo‘yicha muntazam amalga oshiriladigan pul to‘lovlaridir.

- a) nafaqlar;
- b) stipendiyalar;
- c) kompensatsiyalar;
- d) pensiyalar.

70. Oliy ta’lim muassasalarining talabalariga to‘lanadigan har oylik pul ta’miloti, shuningdek, jismoniy shaxslarga, shu jumladan, xorijiy davlatlardan ajratiladigan o‘quv grantlari deb nimaga aytildi?

- a) nafaqlar;
- b) stipendiyalar;
- c) kompensatsiyalar;
- d) pensiyalar.

71. Quyidagi javoblardan qaysi birida transfertlarning “boshqa joriy transfertlar” turi noto‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) alimentlar;
- b) muntazam moliyaviy yordamlar;
- c) bolalar yoki ota-onalar tomonidan beriladigan moddiy yordamlar;
- d) stipendiyalar.

72. Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda pensionerlar soni va ularga tayinlangan pensiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qaysi tashkilotdan olinadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligidan;
- b) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasidan;
- c) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidan.

73. Majburiy to‘lovlар va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo‘lgan daromad qanday daromadni ifoda etadi?

